



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**O'ZBEK JADID ADABIYOTI DUNYO
ADABIYOTSHUNOSLIGI KONTEKSTIDA**

moduli uchun

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo'nalishi:

**O'zbek tili filologiyasi:
o'zbek adabiyotshunosligi**



**ALISHER
NAVOIY**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Toshkent – 2022

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

Z.Abdirashidov, f.f.f.d., dosent

Taqrizchilar:

B.Karimov f.f.d., professor

S.Sotiboldiyeva. f.f.d., professor

S.Normamatov, filologiya fanlari doktori. ToshDO‘TAU

E.Ushenmez, filologiya fanlari doktori, Turkiya Istanbul universiteti professori

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

(2020-yil 29-dekabrdagi 7-sonli qarori)

MUNDARIJA

T/r	Bo‘limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	15
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	28
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	50
V.	KEYSLAR BANKI	72
VI.	GLOSSARIY	74
VI.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	90
VII.	TAQRIZ	96

I.ISHCHI DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil

etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamlı texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyatga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

“O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” moduli oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi oldiga qo‘yilgan zamonaviy talablarni inobatga olgan holda tuzilgan. So‘ngi vaqtarda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta’limning kredit-modul tizimiga o‘tishi boshqa fanlar qatori adabiyotshunoslik yo‘nalishida ana shu islohotlar natijasini tatbiq etilishi davr talabidir.

Yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishi, unga turli janrlarning kirib kelishi va rivojlantirilishi bevosita o‘tgan asrning boshlarida, qisqa tarixiy davr ichida mintaqamizga kechgan jadidchilik ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakatining samarasi deb qabul qilinadi. Va bu shubhasiz. Shunday ekan, bugungi kun yangi avlodini tarbiyalash, yangi kadrlar tayyorlash tizimi jadidchilik harakatning barcha jihatlarini qamrab olgan bilim va ko‘nikmalarni taqdim etishni taqozo etadi.

Jadidchilik harakatining mohiyatini anglash, o‘zbek jadid adabiyotining dunyoda o‘rganilish va tadqiq qilinish tamoyillarini tahlil qilish orqali hozirgi yosh kadrlarga yetkazib berish, Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat kabi buyuk mutafakkir va ma’rifatparvarlarning ilmiy, ma’naviy va ma’rifiy merosini chuqr o‘rganish yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalashda, ularni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida ulg‘aytirishda muhim omil sanaladi.

Ushbu modul oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilariga o‘zbek jadid adabiyotini o‘rganish va o‘qitishda yangicha yondashuv yo‘llari borasida tushuncha beradi.

Modulning maqsad va vazifalari

“O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” modulining **maqsadi** malaka oshirish kursi tinglovchilarida yangi o‘zbek adabiyotga taalluqli bir qator fanlarni, xususan, “Jadid adabiyoti”ni o‘qitish borasida yangicha ilmiy yondashuvlarni shakllantirish va ularni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini o‘rgatishni ko‘zda tutadi.

Ushbu modulning **vazifalari** quyidagilardan iboratdir:

- oliv ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarini o‘zbek jadid adabiyotini o‘qitish samaradorligini oshirishga doir ilmiy-metodik yangiliklar bilan tanishtirish;
- oliv ta’lim muassasalariprofessor-o‘qituvchilarida o‘zbek adabiyoti yo‘nalishidagi istalgan fandan ma’ruza o‘qish, amaliy mashg‘ulotlar o‘tish;
- tinglovchilarda “Jadid adabiyoti” kursi bo‘yicha samarali darslarni tashkil etish;
- profeyesor-o‘qituvchilarda “Jadid adabiyoti” kursini o‘tishda turli innovation usullardan foydalana bilish;
- tinglovchilarda adabiyotga doir fanlarni o‘qitishda interfaol usullarni qo‘llay olish malakalarini shakllantirish.

Modul yuzasidan tinglovchilar bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentliliqi darajasiga qo‘yiladigan talablar

“O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” moduli yuzasidan tinglovchilar:

- Sharqda uyg‘onish va jadid harakatining paydo bo‘lish omillarini;
- jadid adabiyotini o‘qitishda tizimli kreativ yondashuvni;
- jadid adabiyotining shakllanish va tadrijiy rivojlanish asoslari nimalardan iborat ekanligini;
- jadid adabiyotining asosini tashkil etadigan adabiy unsurlarni;
- professor-o‘qituvchining talabalar bilan, talabalarning o‘zaro bir-biri bilan hamjihatlikda ishlashni yo‘lga qo‘yishni;

- talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi haqida **bilimlarga** ega bo'lishi;
- jadid adabiyoti vositasida talabalarda ezgu ma'naviy sifatlar qaror toptirishga yo'naltirish;
- adabiyotni talabalarda ezgu ma'naviy sifatlar qaror topdirishga yo'naltirish;
- har qanday badiiy asarni tahlilga torta olish;
- jadid adabiyoti, umuman adabiyot borasidagi qarashlarning turli xil bo'lishiga yo'l qo'yish;
- tahlil qilinayotgan asar yoki o'rganilayotgan shaxs bo'yicha talabalarning fikr-mulohazalarini boricha qabul qila bilish **ko'nikmalarga** ega bo'lishi;
- jadid adabiyotining xalqaro miqyosda o'rganilishiga oid tamoyillarni o'z tajribasida qo'llay olish;
- turli auditoriya bilan bemalol muloqotga kirisha bilish;
- o'qitishning interfaol usullaridan foydalana olish;
- o'quv jarayonida muammoli ta'lim usulidan foydalana olish;
- talabalar bilimini xolis baholay olish **malakalariga** ega bo'lishi kerak.

Modulni to'liq o'zlashtirish natijasida tinglovchi adabiyot fanlarini o'qitishga yo'naltirilgan turli auditoriya bilan bemalol muloqotga kirisha bilish, jadid adabiyotining o'rganilishi va tadqiq qilinish tamoyillari bo'yicha **kompetentlilikga** ega bo'ladi.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

"O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida" moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi. Moduldagи ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o'qitishning zamonaviy usullari, dunyo ilmida jadid adabiyoti bo'yicha erishilgan eng so'nggi yutuqlardan foydalanish ko'zda tutilgan:

- ma'ruzalarda o'zbek va xorij adabiyotshunoslari erishgan so'nggi yutuq va natijalardan foydalanish;
- masofadan o'qitish orqali tinglovchilarning o'zbek jadid adabiyotiga doir

- yangi tadqiqotlarni mustaqil egallab olishlariga imkon yaratish;
- amaliy mashg‘ulotlarda ta’limning fikriy hujum, kichik guruhlar bilan ishslash singari interfaol usullarini qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” moduli o‘quv rejadagi mutaxassislik fanlarining barchasi bilan uzviy bog‘langan.

Modulning Oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar “O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” kursi bo‘yicha o‘qitishning eng ilg‘or yo‘llarini egallaydilar, ularda turli darajadagi auditoriyada mavzu doirasida fikr bildirish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

	“O‘zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” moduli mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Jumladan:	
			Nazariy	Amaliy
1.	Sharqda uyg‘onish va jadid harakatining paydo bo‘lish omillari.	2	2	
2.	Turkistonda jadidchilikning shakllanishi va unga ta’sir etgan omillar.	2	2	
3.	Turkiston jadidlari va tashqi matbuot. Milliy matbuot va o‘zbek adabiyotida yangi janr va turlarning shakllanishi.	2	2	
4.	Jadid adabiyoti va uning asoschilari.	2		2

5.	Jadid adabiyotining taraqqiyot bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.	2		2
6.	Mustaqillik davrida jadidshunoslilik.	2		2
7.	Jahon adabiyotshunosligi va Turkiston jadidchiligining tadqiq etish tamoyillari.	2		2
	Jami:	14	6	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Sharqda uyg‘onish va jadid harakatining paydo bo‘lish omillari. Turkistonda jadidchilikning yuzaga kelish omillari. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida butun Sharq mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harakati Rosiya imperiyasi qo‘l ostida bo‘lgan Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. Bu harakat mintaqalar bo‘yicha turlicha nom oldi. Arab mamlakatlarida “An-Nahda” (Uyg‘onish) deb nom olgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi mustamlakasida bo‘lgan turkiy xalqlar o‘rtasida esa bu islohotchilik harakati “jadidchilik” nomi bilan tarixga kirdi. “Jadid” so‘zi lug‘aviy jihatadan “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik esa Qrimning Bog‘chasaroyida 1883-yili Ismoil Gasprinskiy tarafidan asos solingan yangi – jadid usulga asoslangan yangi maktabdan boshlandi.

2-mavzu. Turkistonda jadidchilikning shakllanishi va unga ta’sir etgan omillar. Jadid harakatining mohiyati, uning asl kelib chiqish sabablari, unga ta’sir ko‘rsatgan omillar, shaxslar, ularning faoliyati va ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlar o‘tgan asrning 10-yillaridan boshlandi. Ayniqsa, 20-asrning 20-yillarida Turkistondagi jadidchilikning tub mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligi sovet mafkurasini tomonidan tanqidga uchradi va o‘z tadqiqot tamoyillarini o‘zgartira boshladi. 30-yillarda esa jadidchilik butunlay qoralandi va uni o‘rganish ham ta’qiqqa uchradi. Lekin dunyoda bu jarayon to‘xtamadi. 20-asrning 90-yillarigacha Turkiston jadidchiligi borasida AQSH, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Turkiya va qator davlatlar

olimlari tomonidan turli mazmun va yo‘nalishdagi taqdiqotlar olib borildi. Albatta, ushbu tadqiqotlarning barchasini ham Turkiston jadidchiligi, o‘tgan asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy holat to‘g‘ri baholangan yoki atroficha oolib berilgan deb aytish qiyin. Shunday bo‘lsada, ushbu tadqiqotlar turkistonlik ziyorolar faoliyati va ijodi bilan dunyo hamjamiyatini ma’lum ma’noda tanishtirdi. Olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati tarixiy yo‘nalishda bo‘lib, adabiy jarayon qisman tahlilga tortilgan. Bu esa jadidlarning badiiy ijodi bilan bog‘liq masala dunyo jadidshunosligi oldida dolzarb masalalardan bri hisoblanadi.

3-mavzu. Turkiston jadidlari va tashqi matbuot. Milliy matbuot va o‘zbek adabiyotida yangi janr va turlarning shakllanishi. Milliy uyg‘onish harakatining borishi vaqtli matbuot bilan chambarchas bog‘liq kechdi. Matbuot jadidlar dasturini amalga oshirishda minbar sifatida xizmat qildi. XX asr adabiy manzarasi jadid matbuotida to‘la-to‘kis o‘z aksini topdi. Bu adabiyotning birinchi bosqichi – 1905-1917-yillar adabiyoti Turkistonda milliy matbuotning ilk kurtak yozishi, rivoj olishi davriga to‘g‘ri keldi. Shu qisqa vaqt jadid matbuoti bilan birgalikda jadid adabiyotini ham sinovdan o‘tkazdi. Matbuot bilan adabiyotning uyg‘unlashuvi hodisasi ro‘y berdi. Adabiyotni ommaga yetkazish uchun keng tarqalish imkoniyatiga ega bo‘lgan gazeta yo‘nallarda nashr etish yo‘li tanlandi. Bundan tashqari, sahna asarlarini esa teatrda namoyon etish bilan katta ta’sir kuchiga erishilgan. Jadid adabiyoti shubhasiz jadid matbuoti vositasida keng yoyildi, tomir otdi. Publisistik hamda adabiy tamoyillar birlashdi. Shu bilan bir qatorda, davr adabiyotiga mos tarzda tanqid yoki boshqacha aytganda jadid adabiyotshunosligi ham shakllanib, yangilanib bordi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Jadid adabiyoti va uning asoschilar. Adabiyotdagи yangilanishlar, g‘oyaviy kurashlar, bahs-munozaralar bu davr adabiyotiga xos bosh xususiyat bo‘ldi. O‘zbek adabiyoti realistik xarakterga ega bo‘la boshladi. Bu bosqichda jadid adabiyotining Qodiriy, Cho‘lpon, Avloniy, Fitrat kabi buyuk qalam sohiblarini yetishtirgan adabiyot janrlar qorishiqligi, tajribalar silsilasini

boshidan kechirdi. Bu davrda qarashlar, ifoda yo‘llari, maqsad o‘zgardi, keskinlashdi. Badiiy tafakkur va estetika yangilana boshladi. G‘arb adabiyoti va publisistikasining ta’sirida hikoya, roman, drama janrlari va tanqidiy maqola va esse, taqriz, obzor, felyeton kabi adabiyotshunoslik sohalari o‘zlashdi. Adabiy janr hamda adabiyotshunoslik janrlari o‘zining aniq chegarasiga ega bo‘lmadi. Adabiyotning ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib ish tutishi, o‘z yo‘nalishini belgilashi ayni shu davr adabiyoti misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, o‘zbek she’riyatining shu kungacha bosib o‘tgan mavzu yo‘nalishlariga e’tibor beriladigan bo‘lsa, ularda o‘z davri muammolaridan kelib chiqqan turlicha tendensiyalarni kuzatish mumkin. Ijodda janrlar qorishuvi paydo bo‘ldi, xususan, masalasi Matbuot, adabiyotshunoslik, teatr, badiiy asarlar adabiyot sifatida qaraldi. Adabiyotning estetik jihatlaridan ko‘ra g‘oyaviy masalalariga e’tibor ko‘proq bo‘ldi. Adabiyotning matbuot bilan uzviyligi kuchaydi. Shu bois bu davr adabiyotida publisistik va badiiy janrlar o‘rtasida chegara yo‘qoldi.

2-mavzu. Jadid adabiyotining taraqqiyot bosqichlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishiga bir tomonidan ichki omillar, ikkinchi tomonidan esa tashqi omillar katta ta’sir ko‘rsatdi. XX asr Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qiladigan xalqlar uchun bir qadar muvaffaqiyatli boshlandi. Rossiya Yaponiya bilan bo‘lgan urushda mag‘lubiyatga uchragach, ichki va tashqi kuchlarning bosimiga bardosh bera olmay qoldi. Imperiya ichkarisida siyosiy kurashlar avj ola boshladi va imperator 1905-yil oxiriga kelib barcha siyosiy kuch va guruhlarga erkinlik beruvchi Manifest e’lon qilishga majbur bo‘ldi. Manifestning asosiy nuqtalaridan biri so‘z erkinligini ta’min etdi. Turkiston jadidlarining shakllanishida tevarak-atrofdagi davlatlarda sodir bo‘lgan yirik siyosiy voqealardan tortib alohida shaxslargacha ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatgan. Bular qatorida xorijiy matbuotning roli ayniqsa yuqori. Bundan tashqari Ismoil Gasprinskiy, Abdurashid Ibrohimov, Tavfiq Fikrat, Ahmad Midhat va boshqa qator shaxslarning fikr-g‘oyalari ham Turkiston jadidchiligining shakllanish omillaridan deb aytish mumkin. Ijtimoiy-ma’naviy hayotning barcha jabhalarini yangilashni ko‘zda tutgan jadidchilik

harakatining yuzaga kelishi bevosita chor Rossiyasi tomonidan turkistonning istilo qilinishi va uning oqibatlari bilan bog‘langan bo‘lib, uning shakllanish davri 1865-1905-yillar bilan belgilanadi. Jadid adabiy jarayoni an’anaga ko‘ra ko‘proq Qo‘qon, Xiva, Buxoro, Samarqand va Toshkentda rivoj topdi. 1905-yil voqealari, xususan, 1905-yil 17-oktyabr Manifestidan keyin jadidchilik harakati rivojlanish bosqichiga kirdi. O‘zbek jadid adabiyoti jadidchilik harakatining adabiy-badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ldi. Yangi o‘zbek adabiyotiga asos bo‘lgan o‘zbek jadid adabiyotining avj taraqqiysi 1915-1925-yillarga to‘g‘ri keldi. Shulardan kelib chiqqan holda o‘zbek jadid adabiyotini ikki bosqichga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq: 1. Ilk mustamlakachilik davri: manbalari, yuzaga kelishi (1865-1905). 2. Milliy va ijtimoiy kurashlar davri: taraqqiyoti va tugatilishi (1905-1929).

3-mavzu. Mustaqillik davrida jadidshunoslik. XIX-asrning o‘rtalariga kelib, O‘rta Osiyo xonliklari tugatilib, tarqoq adabiy jarayon birlashdi. Va jadid adabiyotiga qadam qo‘yildi. Ushbu davr adabiyotining umumiylaridan biri an’anaviylik va vorislikning kuchayishi bo‘ldi. Shu bilan birga, zamondosh qardosh ijodkorlardan ta’sirlanish kuchaydi. Bu davrning lirik qahramoni ijtimoiylashdi, zulmga qarshi kurashuvchi, xon va boylarni qoralovchi inson sifatida gavdalandi. Turkiston o‘lkasi mustamlaka zulmi asoratiga tushib qolgan XIX asr oxirlaridan boshlangan milliy uyg‘onish davri bosqichiga kelib endi she’riyatdagi mavzu ham, uslub ham keskin o‘zgardi. Jadid she’riyati vakillari muhabbatni kuylashga moslashgan aruz vaznidan voz kechib barmoq vaznidailma’rifatga, vatanni sevishga chorlovchi she’rlar yozishdi. An’anaviy nazmning faqat shakligina saqlanib qoldi. She’riyatda har xillik yo‘qolib, mavzu umumiylashib yaxlitlanib ketdi, bitta maqsad atrofida birlashdi. Agar jadid she’riyatining birinchi bosqichi 1905-1917-yillar oralig‘i deb belgilansa, shu qisqa vaqt ichida yuz bergen jarayon ko‘p asrlik an’ana qolipini parchalab yubordi. Bu bosqich she’riyatda “tajriba bosqichi” bo‘ldi va u ifodaning to‘porilikdan jozibadorlikka o‘tishiga zamin hozirladi

4-mavzu. Jahon adabiyotshunosligi va Turkiston jadidchiligining tadqiq etish tamoyillari. Turkiston jadidchiligi, xususan, o‘zbek jadid adabiyoti o‘tgan asrning 50-60-yillardan boshlab dastlab Amerikada, keyinchalik Yevropa va Osiyo mamlakatlarida o‘rganila boshlandi. Amerikada o‘zbek jadid adabiyotini tadqiq qilish maktabini yaratgan Edvard Ollvort Fitrat ijodini jiddiy tadqiq, tahlil qildi, qator maqolalar, kitoblar chop etdi. Ayni tendensiyani Yaponiyada ham kuzatish mumkin. Hisao Komatsu ham ko‘proq Fitrat ijodi bilan qiziqdi va bu borada ko‘plab ishlar chop qildi. Shuningdek, Yevropa o‘zbek jadid adabiyotini o‘rganish maktablari Germaniya va Fransiyada shakllandi. Bu maktablar vakillari Fitrat ijodidan tashqari, Cho‘pon, Qodiriy kabi qator adiblar ijodi bilan qiziqdi. Albatta xorijda chop qilingan ilmiy ishlarning barchasini sof adabiy izlanish deb aytish qiyin. Aksariyat tadqiqotlarda adabiyot ijtimoiy-siyosiy voqealar kechimini o‘rganish jarayonida yordamchi vlsita sifatida qaralganligi bilan ajralib turadi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o‘qitish;
- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ta’lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta’limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo‘yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o‘z fikrini asoslashga o‘rgatish.

**II. MODULNI O'QITISHDA
FOYDALANILADIGAN INTERFAOL
TA'LIM METODLARI**



“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to‘sıqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
T	To‘sıqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalgaga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi.

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

“Keys-studi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka tartibdagи audiovizual harakat; – keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); – axborotni umumlashtirish;

	<ul style="list-style-type: none"> – axborot tahlili; – muammolarni aniqlash.
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; – asosiy muammoli vaziyatni belgilash.
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish.	<ul style="list-style-type: none"> – individual va guruhda ishlash; – muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; – har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; – muqobil yechimlarni tanlash.
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> – yakka va guruhda ishlash; – muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; – ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; – yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish.

Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobjiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

• F	- fikringizni bayon eting
• S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
• M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
• U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna: Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna: Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- C. “Struktura – tahlil”, “metod – fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma’no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarini mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi.	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish.	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish.	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash.	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish.	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha.	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnnning bektakror o‘ziga xosligi.	

Izoh: Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘srimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.


“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.


Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ular dan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqorida nafis pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqorida nafis pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.
6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma-ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruuh bahosi	Guruuh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o'z yozuvida o'qish tajribasi					
Matnni o'z tilida o'qib tushunish (lug'at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'zaro yaqin nazariy bilim, ma'lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish

yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo‘linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI



1-MAVZU:

**SHARQDA UYG‘ONISH VA JADID HARAKATINING PAYDO
BO‘LISH OMILLARI**

REJA:

- 1. “Jadid” va “jadidchilik” atamasi, uning shakllanishi**
- 2. Turkistonda XX asr boshlarida ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy vaziyat**
- 3. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi va unga turtki bergan omillar**
- 4. Turkiston mintaqalarida jadidchilik harakatining rivojlanish tendensiyalari**

Tayanch so‘zlar: jadid, maktab, matbuot, adabiyot, harakat, ta’sir omili. **“Jadid” va “jadidchilik” atamasi, uning shakllanishi.** XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida butun Sharq mamlakatlari bo‘ylab yoyilgan islohotchilik harkati Rossiya imperiyasi qo‘l ostida bo‘lgan Turkiston o‘lkasiga ham kirib keldi. Bu harakat mintaqalar bo‘yicha turlicha nom oldi. Arab mamlakatlarida “An-Nahda” (Uyg‘onish) deb nom olgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi mustamlakasida bo‘lgan turkiy xalqlar o‘rtasida esa bu islohotchilik harakati “jadidchilik” nomi bilan tarixga kirdi. “Jadid” so‘zi lug‘aviy jihatadan “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik esa Qrimning Bog‘chasaroyida 1883-yili Ismoil Gasprinskiy tarafidan asos solingan yangi – jadid usulga asoslangan yangi maktabdan boshlandi.

Turkistonda XX-asr boshlarida ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy vaziyat. Turkiston jadidchiligi Rossiya imperiyasidagi boshqa muslimon mintaqalaridagiga nisbatan ancha kech, XX-asr boshlarida maydonga keldi. Shunday bo‘lsada, Turkiston jadidlarining faoliyati tez rivojlandi. Ular yangi usul maktablarining yoyilishida anchagina muvaffaqiyatlarga erishdi va eng asosiysi,

Turkistonda milliy matbuotga asos soldilar.

Turkiston jadidchiligining asoslari turli tadqiqotlarda turlicha talqin qilinadi. Turkistonlik jadidlar muhim masalalarni hal qilishda Ichki Rossiya musulmonlari, ayniqsa jadidchilik haraktining asoschisi bo‘lgan qrimtatar Ismoil Gasprinskiy fikr va g‘oyalariga ko‘proq tayandi.

Jadidchilik ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat. U: 1) jamiyatning barcha qatlamlarini islohot jarayoniga jalgan eta oldi; 2) milliy mustaqillik yo‘lida siyosiy faoliyat olib bordi; 3) maorif va madaniyatni, matbuotni ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga yo‘naltira oldi.

Jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi qo‘l ostidagi turkiy xalqlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy tarixidagi nisbatan qisqa, ammo juda shiddatli va murakkab davrlardan biri sanaladi. Ushbu harakatning mohiyatini turli davrlarda turlicha tadqiq va tahlil qilingan tadqiqotlarda jadidchilikning ko‘lami, uni harakatga keltirgan shaxslar hayoti, ijodi, jamiyatga bo‘lgan ta’siri masalalari hanuz to‘laligicha ochib berilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, jadid harakatining to‘liq yaxlit bir shaklda o‘rganishni, tadqiq etishni talab qiladi.

Turkiston jadidchiligi Rossiya imperiyasidagi boshqa musulmon mintaqalaridagiga nisbatan ancha kech, XX asr boshlarida maydonga keldi. Ushbu harakatning asosini Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva vakillari tashkil etdi.

Turkiston mintaqalarida jadidchilik harakatining rivojlanish tendensiyalari. Turkistonlik jadidlar muhim masalalarni hal qilishda Ichki Rossiya musulmonlari, ayniqsa Ismoil Gasprinskiy fikrlariga ko‘proq tayanganini aytib o‘tish lozim.

XX-asr Rossiya imperiyasi hududida istiqomat qiladigan xalqlar uchun bir qadar muvaffaqiyatli boshlandi. Rossiya Yaponiya bilan bo‘lgan urushda mag‘lubiyatga uchragach, ichki va tashqi kuchlarning bosimiga bardosh bera olmay qoldi. Imperiya ichkarisida siyosiy kurashlar avj ola boshladi va imperator 1905-yil oxiriga kelib barcha siyosiy kuch va guruhlarga erkinlik beruvchi

Manifest e’lon qilishga majbur bo‘ldi. Manifestning asosiy nuqtalaridan biri so‘z erkinligini ta’min etdi.

“Jadid” so‘zi lug‘aviy jihatadan “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik esa Ismoil Gasprinskiy tarafidan asos solingan yangi – jadid usulga asoslangan yangi maktabdan boshlandi.

Albatta, biror ishni, g‘oyani, yangilikni targ‘ib qilish uchun ma’lum strategiya ishlab chiqilishi kerak. Aynan ana shu strategiya yangi g‘oyaning qanchalik yashovchanligi va xalq ongiga qanchalik singib borishini belgilab beradi. Jadirlar ham o‘z g‘oyalarini targ‘iboti uchun birinchi navbatda “milliy g‘oya” konsepsiyasini yaratishga intildi. Milliy g‘oya, falsafiy ma’nosiga ko‘ra, bir millatning birlashuvi va milliy o‘zlikni anglab yetishni bildiradi. Milliy g‘oya millat taraqqiyoti uchun zarur va eng muhim ishlarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan dastlabki poydevorni yaratishni anglatadi. Gasprinskiyning fikricha, insonlarni bir g‘oya ostida birlashtirish natijasida jamiyatning har bir a’zosi millat manfaatini o‘zining shaxsiy manfaati sifatida qabul qila boshlaydi; natijada millatga foyda keltiradigan har qanday jamoat ishdan hech kim o‘girilib ketmaydi.

Gasprinskiyning Turkistondagi eng yaqin hammaslagi Behbudiy esa quyi va yuqori maktabning isloh etilishi, millatning isloh etilishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, millatning isloh etilishi bu milliy g‘oya bo‘lib, uni barcha targ‘ib qilishi kerak.

O‘z navbatida, millatni bir “umummilliyl g‘oya” ostida birlashtirish uchun ishga musulmon elitasini, ya’ni musulmon jamiyatining ziyoli qatlamini jalg qilish zarur edi. Ushbu qatlam faoliyati turli siyosiy, iqtisodiy, ta’lim va madaniy institutlar tashkil etilishiga qaratilishi kerak edi. Gasprinskiy musulmonlarning bu ziyoli qatlamini ikki katta guruhga ajratadi: 1) hukmdorlar, ma’murlar va olimlar; 2) tijorat va ishlab chiqarish sinfi vakillari.

“Oyina” jurnalida chop etilgan bir maqolada Turkiston musulmonlari shartli ravishda uch guruhga taqsim qilingan edi: 1) badavlat insonlar: yer egalari, savdogarlar, ishlab chiqaruvchilar; 2) turli kontora yoki alohida odamlar qo‘lida

xizmat qilayotgan o‘qimishlilar; 3) “millat” haqida umuman tasavvurga ega bo‘lмаган oddiy xalq. Bu tasnif muallifining fikricha, agar mana shu guruh vakillari birlashsa va tillari va dillari bilan moddiy yordam ko‘rsatsa millat manfaati va ravnaqi uchun istalgan ishni amalga oshirish mumkin.

Begali Qosimovning fikriga ko‘ra, Turkiston jadidlarining gazeta, xayriya jamiyatlari ta’sis etish, yangi usul maktabalarini yoyish, teatr ishlari va boshqa barcha harakatlari bir milliy g‘oya uchun xizmat qildi. Uning ta’kidlashicha, har bir g‘oyaning milliy g‘oyaga aylanishi uchun ikki talabga javob berishi kerak: 1) g‘oya millatning haqiqiy ehtiyojidan, turmush tarzidan, asriy an'analaridan va albatta, imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak; 2) ushbu g‘oya millat tomonidan anglab yetilishi, boshqa so‘z bilan aytganda, milliylashtirilishi kerak. Ya’ni, g‘oya millatning har bir vakili yuragiga yetib borishi kerak.

Behbudiy “A’molimiz yoinki murodimiz” sarlavhali maqolasida turkistonliklarning turli tadbir, to‘ylaridan tortib milliy o‘yinlarigacha bo‘lgan har kunlik turmush tarzini tahlil qilar ekan, xalqni ko‘zini ochib yon-tevaragidagi millatlar ishlariga va qanday yashayotganlariga qarashga chaqiradi. U xalqni isrofli tadbirdardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag‘ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash maqsadida davlat ta’lim muassasalarida bolalarni o‘qishi uchun yo‘naltirishga da’vat etadi. Behbudi bu harakatlarini umummillyy ishlar, oliy maqsadlar, xohishlar va intilishlar deb ataydi.

Badiiy adabiyot, xususan she’riyat milliy g‘oya targ‘ibotida juda katta rol o‘ynadi. Jadid shoirlari birinchi navbatda yangi ilm, fanni ulug‘ladi va xalqni ushbu ilm va fanlarni o‘rganishga targ‘ib qildilar. Ular zamonaviy ilm va fanni taraqqiyotga erishishning birdan-bir yo‘li deb qaradilar. Samarqandlik shoir Siddiqiy-Ajziy turkistonliklarni “bir g‘oya atrofida jipslashib, bir yo‘ldan bormoqni” va bir “oliy maqsad”ga intilib, u uchun “kurashishga” chaqiradi.

Turkiston mintaqalarida jadidchilik harakatining rivojlanish tendensiyalari. Turkiston jadidlari milliy g‘oyani samarali targ‘iboti uchun 1914 yildan boshlab turli nashriyot, shirkat va kutubxonalar tashkil qila boshladilar.

Bunday muassasalarning asosiy maqsadi milliy g'oya targ'iboti va siyosiy irodaning mustahkamlanishiga xizmat qiladigan gazeta, jurnal va kitoblarni nashr qilish va Turkiston aholisi orasida tarqatishdan iborat edi. Bunda asosiy e'tibor o'rta avlod musulmonlar auditoriyasiga qaratildi. Ana shunday tashkil etilgan muassalar qatoriga Qo'qondagi "G'ayrat" kutubxonasini, Toshkentdag'i "Nashriyot" shirkatini, Buxorodagi "Ma'rifat" kutubxonasi va "Barakat" kooperativini misol qilish mumkin.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Jadidchilikning mohiyatini nima?
2. Turkistonda jadidchilikning shakllanishida tashqi omilning ta'siri ko'lамини qanday baholaysiz?
3. Jadidchilik va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarning asosi nimada?
4. Turkistonda jadidchilikning rivojiga xos bo'lgan unsurlarning bir-biriga bog'liqligi bormi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007.
2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов. З-нашри. – Тошкент: Маънавият, 1999.
3. Мунавварқори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2003.
4. Пардаев Қ. Ўзбек миллий уйғониш адабиётини ўрганишда матбуотнинг ўрни. – Тошкент: Мухаррир, 2012.
5. Полвонов, Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). Т.: Akademnashr, 2011
6. Сайдов Ҳ. Маърифат либосидаги озодлик. – Тошкент, 2000

2-MAVZU:

**TURKISTONDA JADIDCHILIKNING SHAKLLANISHI VA
UNGA TA’SIR ETGAN OMILLAR**

REJA:

- 1. Jadidchilik va dunyo adabiyotshunosligi*
- 2. Jadid adabiyotining dunyoda o‘rganilishi*
- 3. Jadid adabiyoti va tadqiqot tamoyillari*

Tayanch so‘zlar: *jadid adabiyoti, adabiyotshunoslik, tadqiqot, ijodkor.*

Jadidchilik va dunyo adabiyotshunosligi Jadid harakatining mohiyati, uning asl kelib chiqish sabablari, unga ta’sir ko‘rsatgan omillar, shaxslar, ularning faoliyati va ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlar o‘tgan asrning 10-yillaridan boshlandi. Ayniqsa, 20-asrning 20-yillarida Turkistondagi jadidchilikning tub mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar paydo bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligi sovet mafkurasi tomonidan tanqidga uchradi va o‘z tadqiqot tamoyillarini o‘zgartira boshladi. 30-yillarda esa jadidchilik butunlay qoralandi va uni o‘rganish ham ta’qiqqa uchradi. Lekin dunyoda bu jarayon to‘xtamadi. 20-asrning 90-yillarigacha Turkiston jadidchiligi borasida AQSh, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Turkiya va qator davlatlar olimlari tomonidan turli mazmun va yo‘nalishdagi taqdiqotlar olib borildi. Albatta, ushbu tadqiqotlarning barchasini ham Turkiston jadidchiligi, o‘tgan asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy holat to‘g‘ri baholangan yoki atroflicha ochib berilgan deb aytish qiyin. Shunday bo‘lsada, ushbu tadqiqotlar turkistonlik ziyorilar faoliyati va ijodi bilan dunyo hamjamiyatini ma’lum ma’noda tanishtirdi. Olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati tarixiy yo‘nalishda bo‘lib, adabiy jarayon qisman

tahlilga tortilgan. Bu esa jadidlarning badiiy ijodi bilan bog‘liq masala dunyo jadidshunosligi oldida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Turkiston jadidchiligin tadqiq etuvchi ayrim olimlarning ta’kidlashlaricha, mahalliy jadidlar 1917-yilga qadar umumiy bir dasturga ega bo‘lmaganlar. Ularning fikricha, turkistonliklarning dunyoqarashini bir qadar o‘zgartira olgan Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari 1917-yilga qadar turkistonlik jadidlarning norasmiy dasturi sifatida qabul qilingan edi. Ayni shu fikrni yaponiyalik olim Hisao Komatsu ham ilgari suradi va Fitratning yuqoridagi ikki asarini Buxoro va Turkistondagi jadid – islohotchilik harakatining manifesti bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Bu ta’kid va ta’riflar, albatta, Turkiston jadidchiligining mohiyati va yo‘nalishini aniqlashda nisbiy xarakterga ega. 1911-yili Fitratning “Munozara” va “Hind sayyohi” asarlari nashr etilgunga qadar Turkiston jadidlarining faoliyati ma’lum bir bosqichga ko‘tarilgan, ular yangi usul mакtablarining yoyilishida anchagina muvaffaqiyatarga erishgan, va eng asosiysi, Turkistonda milliy matbuotga asos solib bo‘lgan edilar.

Jadid adabiyotining dunyoda o‘rganilishi. Turkiston jadidchiligining asoslarini tadqiq etgan amerikalik tarixchi Adib Xolid uning paydo bo‘lishini Markaziy Osiyo jamiyatining transformatsiyasida hamda rus bosqini va uning Islom olami doxil butun dunyoni qayta taqsimlashga bo‘lgan harakati natijasida zamonaviylikka zamonaviy “javob” sifatida shakllangan, deb hisoblaydi. Xolid jadidcha ma’rifat yoyish orqali “zamonaviy va shu bilan bir qatorda musulmonchilikni mahkam ushlagan va Turkistonga sodiq bo‘lgan yangi elita” yaratishga va buning natijasida zamonaviy dunyoda mintaqaning manfaatlarini himoya qilishga shay bo‘lganishga harakat qilgan turkistonlik jadidlar va ularning izdoshlarini ajratib ko‘rsatishga urinadi. Xolidning ta’kidlashicha, Turkiston jadidchiligi aksar holatlarda Qrim va Volga-Ural tatarlari fikrlarini inkor etgan va mакtab ishi, adabiy til va boshqa masalalarda mintaqaga voqeligiga mos yo‘llar topishga harakat qilgan.

Turkistonda tashkil etilgan xayriya tashkilotlarining moliyaviy jihatni hech

qachon durust bo‘lmadi. Adib Xolidning ta’kidlashicha, turkistonlik islohotchilar savdogarlarni, ularning mablag‘laridan bir qismini xayriya va vasiylik ishlariga jalb qilishga harakat qildilar. Ammo bu harakatlar Turkistonda xayriya institutini tashkil etishda u qadar samara bermadi. Ko‘zlangan ishlarni samarali amalga oshirish uchun, Gasprinskiy ta’kidlaganidek, jamiyatning barcha qatlamlarini bir milliy g‘oya ostida birlashtirish lozim edi. Behbudiy Turkiston musulmonlari ziyoli qatlaming bu tariqa ish tutganini “har kim o‘z foydasi va shaxsiy ishi bilan band. Bizda umummilliy yoki diniy va milliy ishlar foydasiga harakat qiladigan odamlar yo‘q. Bizda, boshqa millatlarda bo‘lganidek, millatning taraqqiyoti uchun jon kuydiradigan kishilar yo‘q”, deb tushuntirishga harakat qiladi.

Turkistonda mustaqil milliy matbuotning shakllanishiga, Adib Xalidning ta’kidlashicha, ikki omil to‘siq bo‘lgan. Bular, birinchidan, iqtisodiy qoloqlik bo‘lsa, ikkinchidan, rasmiy hukumat tarafidan bo‘lgan bosim. Turkistonning ijtimoiy hayoti ayrim tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirish maqsadida mahalliy ziyolilardan bir guruh 19-asr oxirlarida shakllanganiga qaramay, ular 20-asrning birinchi o‘n yilligidagina mustahkam oyoqqa turishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu holat, balki, Turkistonda milliy matbuot paydo bo‘lishidagi kechikishning eng asosiy omil bo‘lishi mumkin. Turkiston aholisi o‘z tafakkuri va fikrlash tarziga ko‘ra Rossiya imperiyasidagi boshqa musulmon xalqlardan keskin farq qilar edi. Aholining o‘ta konservativ fikrlashi hamda an’analarga “sodiqligi” sabab gazeta xalq orasida u qadar ommalasha olmadi. Aynan mana shu sabablar tufayli 20-asrning 10-yillari o‘rtalarida paydo bo‘lgan milliy matbuotning aksari o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi.

Turkiston general gubernatorligining rasmiy nashri hisoblangan “Turkiston Viloyatining Gazeti”, Adib Xalidga ko‘ra, o‘lkani global va imperiya kontekstidagi holati haqidagi o‘z qarashlarini ifoda qilmoqchi bo‘lgan turkistonlik ziyolilarning asosiy minbari bo‘lib xizmat qildi. Lekin “Turkiston Viloyatining Gazeti”ning musulmonlar hayotida muhim rol o‘ynaganiga qaramay o‘ta konservativ va jadidchilikning har qanday ko‘rinishiga “dushmanlik” ko‘zi bilan

qarar edi. Shu sababdan ham ruslar tarafidan tahrir qilingan “Turkiston Viloyatining Gazeti”ni haqiqiy “musulmoncha” gazeta, deb hisoblash mumkin emas.

Adib Xalid fikricha, “Turkiston Viloyatining Gazeti”ning roli ikkiyuzlamachilik va qarama-qarshilikka asoslangan. Ushbu gazetani nashr qilishdan ko‘zlangan dastlabki maqsad “mahalliy aholini general gubernatorning barcha farmoyishlaridan xabardor qilish” va “tijorat hamda Toshkent va boshqa shaharlarda sodir bo‘lgan turli voqealar haqida xabarlar” chop etishdan iborat edi. Yuqoridagi u qadar “qiziq” bo‘lmagan xabarlar qatorida “Ming bir kecha”dan parchalar hamda rus vaqtli matbuotidan olingan turli xabarlar ham berilar edi. 1875 yildan boshlab gazeta o‘z o‘quvchilaridan kelgan maktublarni hamda zamon haqidagi “foydali ma’lumotlar”ni nashr qilishni joriy etdi. Ostroumov yozishicha, “foydali ma’lumot”lar turli davlatlar geografiyasi va ular haqidagi ma’lumotlar, havo sharlarida issiq havodan foydalanish, temir yo‘l va telegraf, paxta hamda ipak qurti yetishtirish haqida ko‘rsatma va hokazolarni qamrab olgan. “Mahalliy xabarlar” ruknida esa mahalliy xalqni faqat yomon jihatlarini ko‘rsatishga qaratilgan jinoiy ishlar haqidagina xabarlar keltirilgan.

Jadid adabiyoti va tadqiqot tamoyillari. XX-asr o‘zbek adabiyotining ilk xorijlik tadqiqotchilari badiiy adabiyotni, adabiy hodisa va faktlarni ijtimoiy hayot bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganishgan. Bu uslub tahlil va talqinining sotsiologik yondashuv tarzi badiiy voqelik va reallik munosabatlari, uning tarixan haqqoniylig darajasi, hayot haqiqati va badiiy haqiqat munosabatlari singari masalalarni o‘rganishda qisman qo‘l kelgan. Ayrim tadqiqotlarda muammo mohiyatiga ijtimoiy-siyosiy mezonlar asosida yondashish, tarafkashlik prinsipiga asoslanib noo‘rin va biryoqlama xulosalar chiqarish, muallif dunyoqarashiga yetarlicha ahamiyat qaratmaslik tamoyili kuzatiladi. Jumladan, Adib Xolid Fitratning «Munozara» asari tadqiqida: «aksariyat jadid asarlarida musulmon bo‘lmagan shaxslar muallif g‘oyaviy maqsadi targ‘ibotchisi sifatida tasvirlanadi va o‘z diniy qarashlarini bayon etadi. Arab tilida erkin gapira oladigan yevropalik ziyoli obrazi jadid qarashlarini aks ettiradi va yevropalik zamonaviy

musulmonlarga o‘xshab munozara qiladi. Fitrat «Munozara» asarida ham «Hind sayyohi»dagi singari zamonaviy ta’limga ega xristianlarning islom dini va ta’limotini savodsiz musulmonlarga nisbatan yaxshiroq tushunishlari mumkinligini yana bir bor ko‘rsatgan», deydi. Adib Xolidning Fitrat asarlarida tasvirlangan qahramonlargabir tomonlama munosabati va ularga xos xususiyatlarni belgilashida asosli mantiq bor. Ammo Xolid yetakchi qahramonlarning g‘ayrimuslim ekanligini jahon adabiyotining tasvir usullariga hamohanglikdan, sharqona tafakkur tarzi va mental xususiyatlarning o‘ziga xosligidan izlamaydi. U Fitrat dunyoqarashi va estetik idealini belgilovchi zamonaviy ta’lim masalasiga emas, balki diniy-etnik tafovutlarga e’tibor qaratib, muammo mohiyatiga ayirmachilik pozitsiyasidan yondashadi.

Jadid adabiyotidagi ramziy-majoziy obrazlar tadqiqining ilk va o‘ziga xos namunasi Edvard Olvortning Behbudiyning “Padarkush” dramasiga bag‘ishlangan maqolasidir. Mazkur tadqiqotda Behbudiylar ijodini baholashda konseptual yondashish lozimligi ko‘rsatib berildi. Shuningdek, Olvort Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni” va “Qiyomat” larini tadqiq qilar ekan, ularda ya’ni fikriy mavhumlikni kuchaytirish usuli orqali davr senzurasini chalg‘itish, ateizm qobig‘ida o‘z ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarini targ‘ib qilgan degan xulosa beradi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Dunyo adabiyotshunosligi va jadid adabiyotining kesishuv nuqtalarini ko‘rsating.
2. Jadid adabiyoti va shaxs muammosining tadqiq etilishidagi tamoyillarni nimalarda ko‘rasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Балдауф Ингеборг. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001.
2. Қосимов, Б. Уйғонган миллат маърифати. Т.: Маънавият, 2011.
3. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997.

4. Allworth Edward A. The Preoccupations of ‘Abdalrauf Fitrat, Bukharan Nonconformist: An Analysis and List of His Writings. – Berlin: Verlag Das Arab. Buch, 2000.
5. Allworth Edward. The Beginnings of the Modern Turkestanian Theater // Slavic Review. Vol.23, №4. (Dec., 1964). – P.676 – 687.
6. Allworth Edward. Uzbek Literary Politics. – New York: Columbia University Publications, 1964.
7. Carrère d’Encausse Hélène. Islam and the Russian Empire. Reform and Revolution in Central Asia. (Comparative studies on Muslim societies; 8. Barbara D. Metcalf, Editor). University of California Press, 1988.

3-MAVZU:

**TURKISTON JADIDLARI VA TASHQI MATBUOT. MILLIY
MATBUOT VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA YANGI JANR VA
TURLARNING SHAKLLANISHI**

REJA:

- 1. Turkistonda matbaachilik***
- 2. Ilk mustaqil matbuot***
- 3. Matbuot va adabiyot***

Tayanch so‘zlar: matbaa, uskuna, gazeta, adabiyot, adabiy til.

Turkistonda matbaachilik. O‘zbek jadid adabiyoti o‘zining mafkuralardan, sinfiylikda holi bo‘lgan bahosini mustaqillik yillarida topdi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, mustaqillik davri adabiyotshunosligi, adabiy tanqidi, ilm ommasi qanchalik xolisona fikr bildirishga harakat qilmasin, bu davr adabiyotining haqiqiy manzarasi, o‘ziga xos jihatlari, asosiy xususiyatlari to‘g‘risida o‘sha kezlardagi milliy vaqtli matbuotchalik ishonchliroq ma’lumot beruvchi manba yo‘q. Milliy uyg‘onish harakatining borishi vaqtli matbuot bilan chambarchas bog‘liq kechdi. Matbuot jadidlar dasturini amalga oshirishda minbar sifatida xizmat qildi. XX-asr adabiy manzarasi jadid matbuotida to‘la-to‘kis o‘z aksini topdi. Bu adabiyotning birinchi bosqichi – 1905-1917-yillar adabiyoti Turkistonda milliy matbuotning ilk kurtak yozishi, rivoj olishi davriga to‘g‘ri keldi. Shu qisqa vaqt jadid matbuoti bilan birgalikda jadid adabiyotini ham sinovdan o‘tkazdi. Matbuot bilan adabiyotning uyg‘unlashuvi hodisasi ro‘y berdi. Adabiyotni ommaga yetkazish uchun keng tarqalish imkoniyatiga ega bo‘lgan gazeta yo‘jurnallarda nashr etish yo‘li tanlandi. Bundan tashqari, sahna asarlarini esa teatrda namoyon etish bilan katta ta’sir kuchiga erishilgan. Jadid adabiyoti shubhasiz jadid matbuoti vositasida keng yoyildi, tomir otdi. Publitsistik hamda

adabiy tamoyillar birlashdi. Shu bilan bir qatorda, davr adabiyotiga mos tarzda tanqid yoki boshqacha aytganda jadid adabiyotshunosligi ham shakllanib, yangilanib bordi.

Turkistonning ijtimoiy hayoti ayrim tarmoqlarida islohotlarni amalga oshirish maqsadida mahalliy ziyolilardan bir guruh 19-asr oxirlarida shakllanganiga qaramay, ular 20-asrning birinchi o‘n yilligidagina mustahkam oyoqqa turishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu holat, balki, Turkistonda milliy matbuot paydo bo‘lishidagi kechikishning eng asosiy omil bo‘lishi mumkin. Turkiston aholisi o‘z tafakkuri va fikrlash tarziga ko‘ra Rossiya imperiyasidagi boshqa musulmon xalqlardan keskin farq qilar edi. Aholining o‘ta konservativ fikrlashi hamda an’analarga “sodiqligi” sabab gazeta xalq orasida u qadar ommalasha olmadi. Aynan mana shu sabablar tufayli 20-asrning 10 yillari o‘rtalarida paydo bo‘lgan milliy matbuotning aksari o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi.

20-asr boshlarida Turkistonda “Turkiston Viloyatining Gazeti”dan tashqari ziyolilar orasida Usmonli Turkiyasi, Eron, Hindiston, Misr va ayrim Yevropa mamlakatlarida nashr qilingan gazetalar keng tarqaganini kuzatish mumkin. Bu holatga, bir tarafdan rus va mahalliy hukumatlar tarafidan joriy qilingan pochta tizimi imkon yaratgan bo‘lsa, boshqa tarafdan minglab hajdan qaytayotganlar, savdogarlar va boshqa toifalarning turli mamlakatlardagi nashrlarni olib kelganligidir. Rus byurokratik apparati uchun senzura o‘zgarmas qonuniyat bo‘lishiga qaramay mintaqaga olib kirilayotgan barcha nashrlar uchun to‘liq to‘sinqinlik qilishdan ojiz edi.

Turkiston general gubernatorligining rasmiy nashri hisoblangan “Turkiston Viloyatining Gazeti” Rossiya imperiyasida turkiy tilda chop etilgan ilk gazetalardan biri edi. Turkistonda milliy matbuot chop etilgan ikki qisqa vaqt ni (1906 – 1908 hamda 1913 – 1917-yillar) inobatga olmasa, rasmiy gazeta O‘rta Osiyoda mahalliy tilda chiqadigan yagona nashr edi.

Mahalliy aholi rus tilini o‘rganishga u qadar ishtiyoq ko‘rsatmayotganidan tashvishga tushgan Kaufmanning vorislari marhum general gubernator olib borgan siyosatdan biroz chetlashishga harakat qila boshladi va 1883 yili

“Turkiston Viloyatining Gazeti”ga Ostroumovning muharrir etib tayinlanishi ushbu o‘zgarishlarning ilk qadami bo‘ldi. “G‘ayrirus” mahalliy aholiga rus tilini chuqurroq singdirish ruslashtirish siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan bir edi. Yangi muharrir Ostroumov boshchiligidagi “Turkiston Viloyatining Gazeti” rus ma’muriyatining mahalliy xalqni “ehtiyyotkorlik va uzoqni ko‘zlab ma’rifatli qilish”ni nazarda tutgan yangi siyosatining qandaydir quroli sifatida maydonga chiqishi kerak edi. Va shu maqsadda gazeta bir vaqtning o‘zida ham o‘zbekcha va ruscha nashr qilina boshlandi. Turkiston rus ma’muriyati rasmiyatlari rus sharqshunosligi osiyoliklarni ma’rifatli qilishi mumkin va bu ishni shunday amalga oshirishi kerakki, “g‘ayriruslarning” manfaatlari mustabid chor imperiyasi manfaatlari bilan mos kelsin, degan fikrda edilar.

Hukumatga qarashli bo‘lmagan mahalliy tildagi birinchi gazeta 1906 yili Ivan Geyer tarafidan chiqarila boshladi. Bu gazetaning asosiy maqsadi mahalliy xalqni yangi siyosiy qarashlar va fikrlar bilan tanishtirish, deb belgilangan edi. Geyerning “Taraqqiy – O‘rta Osiyoning umr guzarligi” gazetasi asosan rus gazetalaridan olingan xabarlarni tarjima qilib qayta nashr qildi. Shunday bo‘lishiga qaramay, bu gazeta rus ma’muriyati nuqtai nazaricha nomaqbul bo‘lgan shaxslar, ya’ni mahalliy ziyolilar uchun o‘z fikrlarini izhor qilish imkoniyatini berdi. Bu bilan Geyerning gazetasi mahalliy ziyolilarning anchadan beri amalga oshirishga harakat qilib kelayotgan maqsadlari – siyosiy dialogga qo‘shilishlariga yo‘l ochib berdi. Bu gazeta 17-soni chiqqandan so‘ng moliyaviy muammolar tufayli yopildi. Ivan Geyerning gazetasi mahalliy ziyolilar uchun faoliyatlarining keyingi bosqichini belgilash va aniqlash uchun katta turtki berdi. “Taraqqiy – O‘rta Osiyoning umr guzarligi” gazetasi qisqa vaqt ichida butun Turkiston bo‘ylab tarqalganiga qaramasdan, g‘oyaviy jihatdan general gubernator chizib bergen chiziqdandan chiqa olmadidi. Shu sabab gazeta qisqa muvaffaqiyatdan so‘ng o‘quvchilarini yo‘qota boshladi va tez orada faoliyatini tugatishga majbur qoldi.

Turkiston jadidlarining oldilariga qo‘ygan maqsadlariga yetishish uchun kurashga zo‘r berishlari, ya’ni Ziyo Said yozganidek, konservativ fikrga qarshi

“jihod” e’lon qilishlari Geyer gazetasidan so‘ng Ismoil Obidiy tarafidan tashkil etilgan “Taraqqiy” gazetasidan boshlandi. “Taraqqiy” o‘zidan oldingi nashr bilan juda ko‘p jihatdan umumiylikka ega edi. I.Obidiyning “Taraqqiy”si birinchi sonidan boshlab Ziyo Said ta’kidiga ko‘ra, “Ostromov tarafida bo‘lgan” konservativ ulamoga nisbatan o‘ta keskin tarzda “hujum” qila boshladi. Obidiyning gazetasi 19-sondan so‘ng nojoiz materiallarni chop etganlik aybi bilan sud tomonidan yopib qo‘yildi.

“Taraqqiy” gazetasining yopilishidan bir necha hafta o‘tib Munavvarqori “Xurshid” gazetasini tashkil qildi. Bu gazeta ham “Taraqqiy” yo‘nalishining davomchisi bo‘ldi. Lekin Munavvarqori Obidiydan farqli o‘larоq o‘z maqolalarida Rossiya va qo‘shni davlatlarda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealarni yoritishga ko‘roq urg‘u berdi. Munavvarqorining gazetasi 1906-yil 13-noyabrga qadar “yashadi” va 10-sonidan so‘ng hukumat uni “aksilhukumat yo‘nalish”dagi nashr aybi bilan yopib qo‘ydi. Keyinroq Abdulla Avloniy, tatar Ahmadjon Bektemirov va Munavvarqorilarning umumiyligi tashabbusi bilan tashkil etilgan “Shuhrat” va uning davomchisi “Osiyo” ham aynan yuqoridagi ayblov bilan yopildi. “Osiyo” gazetasi 1908-yil 21-may kuni ta’qiqlandi. Ayni shu davrda Saidkarimboy Saidazimboev tarafidan “Tujjor” gazetasi nashr etildi. Bu gazeta boshqa nashrlardan farqli o‘larоq o‘zini hukumatga qarshi bo‘lmagan va Rossiya davlatchiligi tarafdori hamda dinga zarar keltirmaydigan gazeta deb e’lon qildi. Bunday dasturga ega bo‘lgan “Tujjor” o‘quvchilar orasida u qadar shuhrat topmadi va 36 sonidan so‘ng obunachi yo‘qligi sabab “o‘z o‘limi bilan vafot etdi”. 1908-yil may oyida “Tujjor”ning yopilishi bilan Turkistonda milliy mustaqil matbuot faoliyati tugatildi. Bu ishda, ayniqsa Chor oxrankasi o‘ta jonbozlik ko‘rsatdi.

Ilk mustaqil matbuot. 1906 – 1908-yillar orasida nashr qilingan to‘rt gazeta qisqa muddat ichida Turkiston jadidlarini milliy va diniy o‘z-o‘zini anglash yo‘lidan borayotgan kuch sifatida namoyon qilib ulgurdi.

Buxoro amirligida rus Turkistonidan farqli tarzda birinchi matbuot nashri O‘rta Osiyoda gazeta nashr qilina boshlagandan deyarli yarim asr vaqt o‘tibgina

paydo bo'ldi. Buxoro jadidlari, keyinroq "Yosh buxorolilar" nomini olgan taraqqiyparvarlarning faoliyati 1910-yildan keyin ancha jonlangani kuzatiladi. Ular dastlab ayrim sohalarda, xususan, ta'lif tizimida islohotlarni amalgalashirishga targ'ib qildilar va amirlikning turli shaharlarida yangi usul maktablarini tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratdilar. Ma'lumki, Buxoro amiri Rossiya siyosiy agentligining ruxsatisiz hech qanday mustaqil siyosat yuritishga haqqi yo'q edi. Amirlikdagi barcha siyosiy masalalar albatta rus siyosiy agenti bilan maslahat qilinar edi. Bu vaziyatini juda yaxshi anglagan Mirzo Muhiddin va Mirzo Siroj Hakim kabi buxorolik taraqqiyparvarlar yahudiy savdogari Levi (Levin) yordamida Buxoroda gazeta chiqarish zarurligini rus siyosiy agentiga "uqtira" oldilar. Ular o'zlarining gazeta nashr etish istaklarini mamlakat aholisini Rossiya imperiyasi bilan yaqindan tanishtirish hamda Rossiya fabrikalari uchun paxta yetishtirishda yuqori ko'rsatkichlarga erishishga ko'maklashish kabi dalillar bilan isbotlashga harakat qildilar. Ular mana shu dastur asosida rus siyosiy agentidan gazeta nashr qilish uchun amirdan ruxsat olishga yordam berishni so'radilar. Shu tariqa Buxoro amirligida birinchi matbuot nashri paydo bo'ldi. Bu Kogon (Yangi Buxoro)da 1912-yil 11-mart kuni birinchi soni chiqqan fors tilidagi "Buxoroi Sharif" gazetasi edi. Ushbu gazeta 1912-yil 14-iyulga qadar haftada bir marta, keyin esa haftada to'rt marta nashr qilinadigan bo'ldi.

1912-yil iyul oyidan "Buxoroi Sharif"ga ilova tarzida o'zbek (turkiy) tilida "Turon" gazetasi nashr qilina boshlandi. Ushbu gazeta haftada 2 marta chiqib turdi va o'sha yilning sentyabr oyida mustaqil nashr sifatida faoliyat olib bordi. "Turon"ga muharrir qilib 1906 – 1911-yillarda Turkiyada tahsil olgan va Istanbuldagi buxoroliklar Jamiyatining faol a'zolaridan biri bo'lgan G'iyos Usmonov tayinlandi. Buxoro gazetalari xalq orasida qisqa vaqt ichida ancha shuhrat topdi. 1913-yil yanvar oyiga kelib "Buxoroi Sharif" va "Turon" gazetalari Rossiya siyosiy agentligi yordamida bevosita amir tarafidan yopib qo'yildi.

1913-yil aprel oyida Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy tarafidan, Ziyo Said ta'rifiga ko'ra, samarqandlik jadidlarning to'ng'ichi bo'lgan "Samarqand" gazetasi ta'sis qilindi. Behbudiy gazetani o'z mablag'i hisobiga chiqardi va 5

oydan so‘ng moliyaviy qiyinchilik tufayli uni to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Gazeta 45-sonidan so‘ng qayta chiqmadi. To‘lagan Xo‘jamyorov (Tavallo) “Samarqand” gazetasi yopilgan kunni “milliy motam kuni” deb e’lon qildi. Bu haqda “Tarjimon”ga yuborgan maqolasida shunday yozadi: “Turkistonda bizning birgina gazetamiz bor edi. Gazetaning yetarli obunachilari topilmay 1000 rubl zarar ko‘rishi oqibatida to‘xtashga majbur bo‘ldi. Biz, 10 millionlik Turkiston aholisi birgina gazetani quvvatlay olmadik. Bu bizni taraqqiyotning qaysi yo‘lidan ketayotganimizni va bu ishni qanday tushunishimizni, anglashimizni ko‘rsatadi. Vatandoshlarimiz luzumsiz tadbirlarga katta mablag‘lar sarflyagani holda bir gazeta sotib olishga qurblari yetmaydi.”

1913-yil davomida turkistonlik ziyorolar gazeta chiqarishga ruxsat so‘rab hukumatga bir necha marta murojaat qildilar. 1913-yilning boshida qo‘qonlik Obidjon Mahmudov Farg‘ona viloyati harbiy gubernatoriga mahalliy tilda gazeta ta’sis qilish uchun ariza topshirdi. Tez orada u “Jomi’u-l-axbor” (Xabarlar to‘plami) nomida gazeta chiqarishga va “Madora” nomida qiroatxona ochishga tegishli ruxsatnoma oldi. Namanganda esa Is’hoqxon Ibrat ham viloyat gubernatoriga o‘z bosmaxonasida “At-Tijarat an-Namangan” (Namangan tijorat xabarları) nomida gazeta nashri uchun ruxsat so‘rab ariza berdi. Lekin hukumat bu gazeta nashriga ruxsat bermadi.

1913-yil 20-avgustdan boshlab Samarqandda, Behbudiy tahriri ostida chiqa boshlagan “Oyina” jurnali Ziyo Said ta’kidicha, turkistonlik jadidlarning “eng sevimli nashri”ga aylandi. “Oyina” nafaqat Turkistonda, balki Kavkazda, ichki Rossiyada, Eronda, Afg‘onistonda, Hindistonda va Turkiyada ham tarqaldi. Ayni shu davrda bu jurnal turkistonlik taraqqiyatparvarlarning o‘ziga hos tashrif qog‘oziga aylanib qoldi. 1915-yil 15-iyunda “Oyina”ning 68-soni chiqishi bilan jurnal o‘z faoliyatini to‘xtadi.

1914-yil aprel oyida “Sadoyi Turkiston” va “Sadoyi Farg‘ona” gazetalari ta’sis etildi. Toshkentda chiqa boshlagan “Sadoyi Turkiston” toshkentlik taraqqiyatparvarlarning tayanchiga aylandi. Gazeta o‘zini “Ona Turkiston ovozining” tarjimoni, deb e’lon qildi. Farg‘onada Obidjon Mahmudov

muharrirligida chiqa boshlagan “Sadoyi Farg‘ona” gazetasi xalq orasida biroz ommalashib ulgurgandan so‘ng muharrir gazetaning “Exo Fergany” nomida ruscha shaklini nashr etish uchun hukumatdan ruxsat oldi. Lekin bizga noma’lum sabablarga ko‘ra “Sadoyi Farg‘ona”ning ruscha shakli nashr qilinmadi. “Sadoyi Farg‘ona”ning o‘zi esa 123-sonidan so‘ng yana moliyaviy sabablarga ko‘ra faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘ldi.

Toshkent gazetasining taqdiri o‘zidan oldingi gazetalar kabi ayanchli bo‘ldi. “Sadoyi Turkiston” 66-sonidan so‘ng nashrdan to‘xtadi. Asosiy sabab – mablag‘ yo‘qligi.

Har holda Turkistonda bosma uskunasining paydo bo‘lishi aholining ayrim qatlami hayot tarzini o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Garchi bu jarayon Rossiya imperiyasining boshqa mintaqalariga qaraganda ko‘proq vaqt talab qilgan bo‘lsada. 1905-yil Oktyabr Manifestiga qadar Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasi Rossiya musulmonlarining yagona minbari edi. Va aynan u Kavkaz, ichki Rossiya va Turkistonda musulmon matbuotining paydo bo‘lishi va rivojlanishida juda katta va muhim rol o‘ynadi. Bu yerda Eron, Hindiston va Misrdagi forsiy matbuotning Turkistonda, xususan Buxoroda modernistik g‘oyalarning shakllanishidagi rolini ham aytib o‘tish joiz. Ayniy ta’kidlaganidek, Buxoroning taraqqiyparvarlari 20-asr birinchi o‘n yilligi oxirlarida aynan ana shu vaqtli matbuot nashrlari orqali inqilob havosini simirar edilar.

XX-asr boshlari, xususan, 1906-1917-yillarda Turkiston o‘lkasida nashr qilingan matbuot badiiy adabiyot, badiiy ijod yordamida davrning keskin g‘oyalarini, milliy mafkuraviy qarashlarini ko‘tarib chiqdi. Bu esa adabiyotda turli xil g‘oyalar, qarashlar xilma-xillagini yuzaga chiqardi hamda adabiyotning murakkablashuviga sabab bo‘ldi. Xuddi shu davrga kelib, adabiyotda normativ poetika bosqichi nihoyasiga yeta boshladi. Va o‘z o‘rnini individual-ijodiy badiiy tafakkur bosqichiga bo‘shatib berdi. B.Qosimov ta’biri bilan aytganda, shaxsiy har qanday cheklashdan ijtimoiy adolatgacha bo‘lgan masalalar adabiyotning kun tartibiga qo‘yildi. Ushbu masalalarni vaqtli matbuotda e’lon qilingan adabiy, ijtimoiy-maishiy, siyosiy ruhdagi maqoladan tortib kichik she’riy parchagacha

singib ketganligini ko'rish mumkin.

Yosh Cho'lponning "Adabiyot nadur?" maqolasida adabiyotning ijtimoiy hodisa ekanligiga ishora bor: "Maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan.... Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir".

Epik asarlarda dialoglar asosiy o'rin tuta boshladi. Umuman olganda, adabiy turlar xususiyatlarining bir-biriga o'tib turishi adabiyotshunoslikda ham o'z nazariy isbotini topgan hodisa hisoblanadi: "badiiy adabiyot rivoji davomida adabiy turlar bir-birini boyitadi, ular orasida sintezlashuv jarayonlari kechadi".

Umumiyl ma'noda matbuotda e'lon qilingan she'rlarni ishqiy, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy hamda diniy ruhdagi she'rlar tashkil etardi.

Jadid adabiyoti har qancha o'ziga xosliklarga ega bo'lmasin, u avvalo, mumtoz adabiyotda mavjud an'analardan ozuqa olib rivojlandi. Xusan, Sharq mumtoz adabiyotida tanqidni she'riy yo'lda ifodalash an'anasi XX asr boshlari adabiyotida ham ko'p uchraydi. Buni matbuotda uchraydigan ma'rifiy she'rlarning barchasiga nisbatan aytish mumkin. Sababi, bunday she'rlarda ta'sir o'tkazish, qo'zg'atish katta ahamiyatga ega. Jadid she'riyatida Vatan va millat dardini anglash, ilm-ma'rifatga targ'ib etish asosan 1905-yildan keyin sezila boshladi. Adabiyotni millat va xalqning ehtiyojlariga bo'ysundirish va davr talablari nuqtai nazaidan ko'rib chiqishga urinish 1905-yildan ko'zga tashlangan edi.

An'anaviy she'riyatdagi poetik obrazlar (gul, bulbul, yor, ag'yor) yangi mazmun kasb eta boshladi. "Maktab", "ilm-fan", "ma'rifat", "taraqqiyot" tushunchalari asosiy planga ko'tarildi. Bu davrga kelib mahbubaga emas, aksincha ilmg'a, ma'rifatga muhabbat e'lon qilindi. Jadid shoirlari o'zlarining muhabbat haqida yozilgan she'rlaridan voz kechli.

Matbuot va adabiyot. Milliy nashrlar o'z davrida muhim bo'lgan fikrlarni she'riyat orqali ham o'rtaga tashlay oldi. Janr va mavzu jihatidan ko'lamdor materiallarni nashr qildi. Ushbu materiallari misolida jadid she'riyatiga nazar solinadigan bo'lsa, yangi mazmunni ifodalash uchun yangi poetik shakllarni

izlash boshlangani, ijtimoiy-siyosiy fikr aytish birinchi pog‘onaga ko‘tarilgani ravshanlashadi. Bu davrdagi she’rlar “o‘tish davri” she’riyatidir. Ularga ko‘p nazariy talablar yuklashmas, ijtimoiy g‘oyaviy jihatlarni kuzatish kerak.

Matbuotda e’lon qilingan har bir maqola, she’r, badiiy parcha, xabar yoki iqtibosda adabiy-estetik tafakkur tadriji uchun omil bo‘lgan belgilarni ko‘rish mumkin. Asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy manzarasi, yangi g‘oyalar, yangilanishlar avvalo matbuotda bo‘y ko‘rsatar edi. Matbuot Turkistonni tashqi olam bilan bog‘lashda ham ko‘prik vazifasini o‘tab berdi. Jadid adabiyotining barcha vakillari aynan matbuot vositasida o‘z qalamlarni charxlab bordilar. Milliy ozodlik, hurriyatga intilish yo‘lida matbuot eng asosiy vazifani bajardi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Turkistonda matbaachilik rivojidagi asosiylar to‘siqlar nimada?
2. Mustaqil matbuotning to‘xtab qolish sabablarini qanday izohlaysiz?
3. Matbuot adabiy til shakllanishida rol o‘ynaganmi?
4. Yangi janrlarning yangi o‘zbek adabiyotiga kirib kelishida matbuotning o‘rnini bor deb hisoblaysizmi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.
2. Kleinmichel Sigrid. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. Studien zur usbekischen Dramatik und Prosa zwischen 1910 und 1934. – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1993.
3. Kocaoğlu Timur (ed.). The Reform Movements and Revolutions in Turkistan (1900 – 1924). SOTA. Haarlem, 2001.
4. Kocaoğlu Timur. Türkistan’daki Türkçesi İlk Tiyatro Eseri: Mahmud Hoca Behbudi’nin «Pederküş» (Baba Katili) Piyesi (1913) // Türk Kültürü Araştırmaları Dergisi (İstanbul: Marmara Üniversitesi), Sayı 15 (Bahar 2004). – S.177 – 262.
5. Komatsu Hisao. 20. Yüzyıl Başlarında Orta Asya’da Türkçülük ve Devrim

- Hareketleri. – Ankara, 1993.
6. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. – Т.: Akademnashr, 2011.
 7. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000-

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-AMALIY MASHG‘ULOT.

JADID ADABIYOTI VA UNING ASOSCHILARI

Yavmul vafot

Hamza Hakimzoda Niyoziy

Bori yer yuzinda totorlargagina xos emas, balki butun ahli islomga barobar ta’sir qilgon furqat vajhidalig‘dan motamlik bir kun yetdi, desak-da, marhum va mag‘fur Ismoilbek otomizning yavmul-vafoti klinikdur.

O‘zini inson ekonlig‘in haqiqiy ko‘z bila ko‘rgondan beri butun Rusiya musulmonlari orasiga maorif dengizini oquzmoq va toshzorlarni sabzazor etmoq murodida qorshudagi «sadd» bo‘lgan ba’zi nifoq, g‘aflat va jaholat kabi hisobsiz tizilgon eng zo‘r kotta tog‘larni yolg‘uz o‘zi Farhod kabi ijтиҳод ва g‘ayrat teshasi bila buzub tekiz qilgon zot-da bu marhum va mag‘fur Ismoilbek hazratlari edi. Bu xususlarda har bir tarafdan kelodurgon tiyri ta’n va sangi malomatlar uchun-da: hamma dindosh va millatdoshlari o‘lgan ahli islomning yoshlarig‘a qalqon bo‘lub, o‘zining hayoti uchun eng birinchi darajada farz va lozim o‘lgan tubandagi uyqu va rohatidan, tandagi tarbiya va farog‘atdan voz kechib, uzoq yo‘llarimizni yaqin va kechalarimizni kunduz qilgon zot-da bu marhum va mag‘fur Ismoilbek hazratlari edi. Dunyo yuzida bori oltmish olti sanagina yoshomoqi borasinda milyun-milyun musulmon va muslima sag‘ira va kabiralarga haqiqiy bir ota bo‘luv munosabati-la arolarindag‘i vahshat va g‘aflatni pora-pora qilub, xurshidi ilm va mahtobi ma’rifatni ziyo va nurini sahulatlik ila boshimizg‘a tushirub, bir-birimizni 30 tanishdurgon zot-da bu marhum va mag‘fur Ismoilbek hazratlari edi. Butun xurofotga qadam qo‘yo boshlagon maydoni insoniyatning avvalgi sinfidagi islom saflarini boshqadan isloh qilub, bir intizomg‘a kirguzmoq uchun tovushsiz nutqlari, qanotsiz «Tarjimon»i, ruhsiz qalamining vositasi bila oralaridagi kamchiliklarni bildurub, ilmi iqtisod, chin maishat va hayot yo‘llarini tuzgon zot-da marhum va mag‘fur Ismoilbek hazratlari edi.

Haqiqiy bu inson ashrofuz-zot, xodim ud-din va-l-millatning millat yo‘lidagi garchi zohirda tig‘siz qurbon o‘lgon zot-da bu marhum va mag‘fur Ismoilbek hazratlari edi.

Oh! Milyun oqchalarining quvvati va milyun musulmonlarning aqli va fikru ijтиҳоди bila muyassar o‘lmagon sahulatlarni maydona qo‘yub qo‘ymoq uchun minuti gavharg‘a topilmaydurgon qadrlik umrini 40—50 sanasini millat yo‘liga qurbon etub yuborgon, so‘ngg‘i umum kelodurgon avlodlarini mehnatdan qutqazmoq uchun bahodirona jonini fido qilg‘on bu ma’naviy otaning xizmat va sadoqatlarini qaysi bir inson ko‘ngidan unuta olsun?! Yo‘q, agarda mundog‘ zotlarning dunyo oxirig‘acha bor bo‘lmog‘i uchun umrini, ya’ni jonne badal qilmoqg‘a iloj va chora bo‘lsa edi, yolg‘uz Turkistonda emas, balki totor dunyosindan har kun minglabgina qudimiga jonini ansor qilg‘uchilar chiquub tururlar edi! Bu choralar bo‘lmagonga qorshu: chin sodiq va muhib o‘lgon har bir inson mundog‘ ma’naviy otaning xizmatlarini unutmay, har namoz so‘ngg‘ida bir-ikki minutgina tavaqquf qilub, besh-to‘rt oyati Qur’on o‘qub, pok ruhig‘a hadya qilub, ajdod va abo‘larig‘a rahmat va avlodi aqrabolariga janobi haqdan sabri jamil tilamoqni din va millat tarafindan o‘zig‘a bir umr burch va vazifalardan, deb bilsalar kerak. Dilda afsus, tilda sano va duo bila bu kung‘i milliy motamni kamoli ta’zim va takrim ila ado etduk.

Iloho, illo taborak va taolo bu otamizning haqina barcha musulmon bolalarining duosi xayrlarin qabul etub, pok ruhini jannatul firdavsga mehmon edub, avlodlarig‘a sabri jamil va ajri azim ato aylasun.

«Sadoi Farg‘ona» gazetasi, 1914 yil, 24 sentabr

Rizo Tavfiqbek

Cho ‘lpon

Rizo Tavfiqbekni tanimag‘on qaysi turk qavmi bor? Jahon urushidan burun turk matbuotini ta’qib qilg‘onlar, uning to‘g‘risida juda ko‘p narsalarga

yo‘liqarlar edi. Uning oshiq tarzida hijo vaznida yozg‘on tasavvuf hidli she’rlari ba’zi bir tanqidlari, falsafiy asarlari uning o‘zini har yerda, har kimga yaxshi tanitqon edi. Jahon urushidan beri yana ko‘b narsasi chiqqondur. Lekin, biz, mashhur shoir Abdulhaq Hamid to‘g‘risida yozilg‘on «Hamidnama» otliq tanqid kitobi bilan, so‘ni zamon sodda adabiyotchilarining 8 kitobdan iborat she’r; majmularida qisqa-qisqa, lekin ma’nolik bir-ikki she’rlaridan boshqa narsasini ko‘ra olmadiq.

50—60 jildlik (yoki juzlik) «Qomus falsafa» yozg‘on emish degan rivoyatlar eshitildi, u to‘g‘risida ham aniq bir xabarga yo‘luqmadiq. Shunday qilib, Turkiyada bu kishi ko‘b katta hurmat qozong‘on edi. Adabiyot olamida uning e’tibori juda zo‘r edi. Bir vaqtlar, bir ish to‘g‘risida qamoqqa olinib, qamoqxonadan so‘roqxonaga kelturilar choqda aholining qo‘llari ustida ko‘tarilib kelturilgan; qamoqxonadagi hujrasi bir ziyofat dasturxoniga aylangan. So‘zning qisqasi, jahon urushining so‘nggigacha uning shuhrati, hurmati va e’tibori katta edi.

Inqilob — g‘oyat kuchlik bir omil ekan. Qanday zo‘r shuhratlar yerlarda sudralmadi? Bechora Rizo Tavfiq ham shunday shuhratlarning biri bo‘ldi.

Turkiyaning yangi shoirlaridan eng kuchligi bo‘lg‘on Yahyo Kamolbek bilan Istanbul dorilfununing fors (eron) adabiyoti mudarrisi Husayn Donishbek orasida milliyat janjali boshlanib ketgandan so‘ng, Eron milliyatparvari bo‘lg‘on Husayn Donish tarafidan Rizo Tavfiq ham turk milliyatparvari bo‘lg‘on Yahyo Qamolga qarshi chiqdi. Da’vosini isbot qilish uchun, bu muqtadir faylasuf mashhur Fuzuliy Bag‘dodiy to‘g‘risida dorilfunun sahnida bir leksiya o‘qub, Fuzuliyni turk emas, eronli (fors) qilib chiqardi. Fuzuliyning asarlarini Eronning mashhur bir shoiridan olg‘onlig‘ini da’vo qildi. Mana shu kundan tortib Rizo Tavfiqning shuhratda, hurmatda pastlashi boshlanadi. Jahon urushi tugagandan keyin Fransiyaning Sevr shahrida mag‘lub Turkiya uchun bir muohada hozirlandikim, u muohadani Turkiya matbuoti «Turk mnllati uchun o‘lum muohadasi» deb, juda to‘g‘ri aytgan edi. Shul xo‘rlag‘uchi muohadagi imzo

qilaturg‘on badbaxtlar Turkiyada tezgina topilmadi. Har kim, shu razil vazifani bo‘yniga olmoqdan bosh tortar edi. Shu vaqtida o‘scha kunlarning ayon-a’zosi bo‘lg‘on Rizo Tavfiq maydonga otilib chiqdi va indamasdan borib muohadaga qo‘l qo‘yib keldi. Shu hodisani fransuzlarning bir gazeti juda kulgi qilib yozg‘on edi. Bu ish bechora faylasufning e’tiborini tamom tushurdi. Istanbulga Mustafo Qamolning g‘olib o‘rdulari kirgandan so‘ng shu masalalar yana bir daf‘a qo‘zg‘alib, turk matbuotida faylasuf haqida ko‘b qattig‘ narsalar aytilib o‘tdi. Bir vaqtlar, dorilfunun talabalari uni mudarrisligidan haydadilar. Yaqinda oling‘on bir xabarga qarag‘onda, bu bechora faylasuf dorilfunundan chiqkondan so‘ng bo‘lsa kerak, Istanbuldagi Amriqo qo‘llejiga (qulliyasiga) kirib, talabalarning g‘alvasi orqasida undan ham ketmakka majbur bo‘lg‘on ekan. Undan chiqqach Zung‘uldoq degan joyga borib u yerdagi bir qo‘llejda turk tili va adabiyoti darslarini bera boshlagon ekan u qo‘llejning talabalari ham uni haydashga uruna boshlag‘onlar.

Shunday qilib, Turkiyaning adabiyot va ilm olmidagi eng katta bir kishisi, zamonning qizig‘on qonli yoshlari bilan chiqisha olmasdan, keng fikrini miya hurjuniga solib, sayoqlik-darbadarlik ko‘chasiga kirib qolg‘on...

«Farg‘ona», 1924 y. 10 mart.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mavzuga oid materiallarni tahlil qiling, jadid namoyondalarini sanang.
2. Jadidlar “boisi isloh” deb ta’riflagan adabiy atama qaysi?
3. O‘zbek adabiy tanqidchiligidagi dastlabki taqrizni kimga nisbat beriladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ta’lim-media, 2019.
2. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.

3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
4. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.
5. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.:Ўқитувчи,1979. – 184 б.
6. Тўйчиева Г. Ислом даври шеъриятида аruz тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.бўйича фан доктори (Dsc) дисс. автор. – Т., 2018. 264 б.
7. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ,1990. – 240 б.
8. Алишер Навоий: қомусий лугат. 1-2-жиллар / Масъул мухаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
9. Қурунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013.– 408 б.

2-AMALIY MASHG'ULOT.

JADID ADABIYOTINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Istiqlbol qayg'usi

Hoji Muin

Ma'lumdirki, har millatning taraqqiysi ilm ila bo'lub, ilmi bor millatning istiqboli munavvar va o'zi osoyishda ham ajnabiylar qoshida mahobatlik va hurmatlik ko'rinxur. Sohibi ilm va mutaraqqiy millatlarning alomatlarindan ba'zisi shulki, ibtidoiy maktablari muntazam bo'lub, o'rtalig' har turli madrasalari bo'ladur. Bu madrasalarda o'qub chiqgon bolalari faol odam bo'lub, hol va darajalariga munosib ish — hunar — tijorat va ruhoniy o'runlarga kirishub ketarlar. Shu yo'l ila mutamaddun millatlar o'z ishlarini o'zlari boshqarub, hech vaj-dan o'zgalarga muhtoj bo'lmay rohat, rohatda yashaydurlar. O'z madrasalariga diniy, dunyoviy ilm va fanlarni loziminchada o'rganub chiqarlar. Oning uchun na dinlarini qo'ldan berurlar va na dunyoviy ishlarini.

Demakki, bir qavmning hayot va saodati ilm iladur. Suvsiz baliq tirik qolmagani kabi ilmsiz, ittifoqsiz millatlarning yashay olmasligi tabiiydur. Men bu mahalda ilm va fan qatorinda sarvat, ya'ni boylikni yozmadim, holbuki, tirikchilik shartlarining birisi oqcha va mol edi. Chunki mol va mulk ilmning nihoyatsiz samaralaridan bir juz'idur. Ilmi bor odam ozgina harakat va g'ayrat qilsa, albatta, boy bo'lur. Yuqorida ilmlik millatlar yashaydur demish edim. Muning aksincha, nodon millatlar mutlaq yashamas, tadrijiy yo'q bo'lur. Alalxusus bu zamonda, ilmi zamoniysiz millatning yashamayincha, tezlik ila munqariz bo'lishi muqarrardur.

Burung'i zamonda temir yo'l, paroxud, teleprof, ayruplon va shunga o'xshash madaniyat asboblari yo'qligidan dunyodagi hukumatlar bir-biridan uzoq turub, yaki digarining quvvai askariya va moliyasini tamom bilmas edi. Shuning uchun hukumatlarning bir-biri ustiga borub hujum qilishi nihoyatda mushkul edi. Shul vajdan avvalgi zamondagi hukumatlarning ahvoli ahyonan tabaddulot va

tag‘yirotg‘a uchrar edi. Ammo bu zamon bo‘lsa, butun bosh-qadur. Ilm va fanning taraqqiysi va yordami ila yer yuzindagi muxtalif millatlarning har nav’ ahvoli mutamaddun yovrupalilarning ko‘zi oldindadur. Bu dunyo hayot muborizasi maydoni bo‘lganidan, bir kuchlik nimarsa kuchsizini ezar, yutar. Bu qonuni tabiat har bir jonsiz va jonlik narsalar haqida umumiyligi va joriy bo‘lub kelmakdadur. Masalan, g‘arbdagi Ameriko hukumati sharqdagi Yopuniyoni bilfarz kuchsiz topsa, dengiz ichidan kelub, bir oy zarifida tamom Yopuniyoni istilo va tasxir etmoqi mumkindir. Aning uchundirki, zamonamizdagi hukumatlar boshig‘a tez-tez yangi hodisalar voqe’ bo‘lub, ushbu zamon silohi ila qurollanmagan hukumatlar o‘z mamlakat va istiqlol-laridin mahrum bo‘lmoqdadurlar. Misol uchun hozirgi zamonamizda kam ilm va beparvoligidan jannat kabi shaharlardan ayrilub, yuz minglarcha askarlar va begunoh xotun, bola-chaqalarining talafiq‘a sabab bo‘lgan Turkiya hukumati ila nodonlik va o‘z ichidagi fitna va ig‘tishosh sababli bir-ikki hamsoyasining tuzog‘iga ilinib, muxtazorlik holatiga kelgan Fas huqumatini ko‘rsaturnizki, bular har bir ko‘zi ochiq jaridaxonlarga ma’lumdir, Hokazo Eron.

Emdi kelayluk maqsudimizg‘a. Bizlarning zamonag‘a muvofiq, ya’ni zamoncha ehgiyojimizga yaratg'on maktab — madrasa — dorulsano‘a — ...larimiz ila zamoniy ilm va fanlarni bilaturgon ulamo — ag‘niyo — tujjorlarimiz va hunarmandlarimiz yo‘q. Toki, bizlar ham o‘zgalar qoshida ushbu (muborizai hayot) maydonida ezilmay, ilmimiz ila dinimizni, molimiz ila hayotimizni muhofaza qilib yashasak. Shunday qilmaganimiz holda, bora-bora oxir holimiz taboh-bolalarimizning ishi oh va voh bo‘lub ham din va ham dunyomizni qo‘ldin berub munqariz bo‘lurmiz. Ushbu vaqtidan boshlab istiqbol g‘amini yeb, ta’mini istiqbolimiz yo‘lida harakat qilmoq har birimizning vazifai lozimalarimizdur.

«*Oyna*» jurnali, 1913 yil, 2-sod

MILLATLAR QANDAY TARAQQIY ETARLAR?

M.Behbudiy

Millatlar taraqqiyig‘a bir necha sabablar bo‘lub, tub sababi ulamo ila ag‘niyoning hamiyyat va g‘ayratlaridur. Taraqqiy qilg‘on va yo endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvolig‘a diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o‘z millatlarig‘a so‘z va oqcha ila xidmat etganlari favran zohir bo‘lur. Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o‘z millatining oyandasi uchun yo‘l ko‘rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, maktab va madrasalarda dunyo va oxiratda kerak ilm va fan, ta’lim berarlar, kitob va gazet ila ummatni muslihi uchun bahs va mukolamalar qilurlar. Taraqqiy qilguvchi millatlarning ulamosi zamondin boxabar bo‘lib, o‘z millatining «masoliha zamoniyya»si uchun sa’y etar, millatni peshraftig‘a oqcha ila, hayrat ila iona qilmoqni millat boylarig‘a taklif etar, tashviq va tahrис etar. Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so‘ylar, yozar va havoiji milliya va zamoniyani o‘z millat mansubasig‘a bildirarlar. Zamona ag‘niyolari o‘z millatlarini zamoniycha kerakligi yo‘linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamonaviy maktablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamoq uchun harakat etarlar. Hukumatni o‘rta va oliy maktablariga o‘qiydurg‘on o‘z millat bolalarig‘a ionat etarlar. Va bechora hamjinslarini diniy va dunyoviy maktablarig‘a berub, o‘z xarajatlari ila o‘qutadurlar. Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatandoshlarimizni boylari doimo o‘z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunin, Qafkoz, Qirim, Qozondaki musulmon birodarlarimizni boylari, ulamosi va ahli qalami, sohibi fikri o‘z birodarlarig‘a mol, oqcha, qalam va ilm ila ko‘b iona qiladurlar.

Ammo bizni Turkistonda bu ishlardin so‘ylamoqqa hanuz navbat kelgan yo‘q. Har kim o‘z naf‘i va o‘z shaxsiy ishi ila sargardon, umumiyo yoinki diniy va milliy ishlarni oyandasi uchun, millatni zamona odamlaridek taraqqiy etmog‘i uchun, xaloyiqni isloh axloqi uchun g‘am tortuvchi va harakat etguvchi yo‘qdir. Bir karra diqqat qilib, mahalla-ko‘y va qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko‘paygan. Biz musulmonmiz. Musulmonlikg‘a ilm lozim, amal lozim. O‘qumoq kerak, nima uchun boshqa millatlarda yuza bir nafar besavod

yo‘q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo‘q? Boshqa millatning yosh bolalari mактабда, lekin bizniki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamosiga tobe’ ekan, bizni ulamo bil’aks avomg‘a tobe’dur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o‘ttuz sana so‘ngra yana yomonroq bo‘lur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur. Bugun islohi maktab-madrasa, ya’ni islohi millatg‘a ko‘shish qilinmasa rabi asr so‘ngra diyonat barbod bo‘lur va aning javobi mas’uliyati bugungilarg‘a qolur, bu mas’uliyatdin qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlar o‘qumoq uchun targ‘ib qilmoq kerakdur. Diniy ilm va fanlarning o‘rni mакtab va madrasadur. Dunyoviy fanlarni o‘rni hukumat maktablaridur, ikkisig‘a o‘qumoq uchun oqcha lozimki, ul oqcha boylarni kissayi hamiyatidan chiqsa kerak. Har zamon uchun asbobi isloh va taraqqiyi ionat boshqarur. Millatg‘a ionat etmoq uchun, islohi mакtab va mudarris uchun, rusiy maktablarig‘a bola tayyorlamoq uchun, dehqon va san’atkorlarni rivoj bermoq uchun «hamiyyati xayriya», «nashri maorif», qiroatxonalar, fo‘ndlar, kurujuklar, jaridalar, majallalar, nashriyotlar... kerakdur. Millatlar taraqqiysi shul ila bo‘lur va bu ishlarg‘a oqcha kerakdur, oqcha boylarda va afrodda!

Maro ba tajriba ma’lum shud daro har kor,

Ki qadri mard ba ilm ast qadri ilm ba mol.

(Ma’nosи: menga tajribadan ma’lum bo‘ldiki, odamda qanchalik ilm bo‘lsa ham ilmning qadri moldadur).

«*Samarqand*» gazetasi, 1913 yil, 30 iyul.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mavzuga oid materiallarni tahlil qiling, hamda jadid adabiyotining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari yuzasidan o‘z fikrlaringizni bildiring.
2. “Demakki, bir qavmning hayot va saodati ilm iladur. Suvsiz baliq tirik qolmagani kabi ilmsiz, ittifoqsiz millatlarning yashay olmasligi tabiiydur”. Quyidagi fikrni misollar yordamida izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
2. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.
3. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.:Ўқитувчи,1979. – 184 б.
4. Тўйчиева Г. Ислом даври шеъриятида аruz тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.бўйича фан доктори (Dsc) дисс. автор. – Т., 2018. 264 б.
5. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ,1990. – 240 б.

3-AMALIY MASHG'ULOT.

MUSTAQILLIK DAVRIDA JADIDSHUNOSLIK

ADABIYOT NADIR?

Cho 'lpon

Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir. Har sinf, xalqning o'ziga maxsus ohangi, o'ziga ta'sir qiladurg'on zori bo'lur. Mana shul muhit bo'shliginda bo'lgan qat'iy to'lqunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodliq va yo ko'b achchiq ta'sir etmagindan odamning ko'nglida o'zi bilmasdan o'rashub qolg'on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg'on qayg'ulanmak va yo ko'krak kerib qo'b dam olurday oh urmaklar — hamasi ko'ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to'lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur. Kishi ba'zi vaqtida shodlikdan kulur va ba'zi vaqtida ko'z yoshin to'kub yig'lar, oh tortar. Odamning mundog' har xil kayfiyatga kirub turmog'i o'z ixtiyori nla bo'lmay, balki maishati yo'lida har vaqt uchrab turadurg'on falokatning anga ba'zi vaqtida zulm ko'rsatmog'i va ba'zi vaqtida bir yaxshilik ko'rsatub suyundirmog'idin kelub — yaxshi ko'rganda suyunib, yomonliq ko'rganda yig'lab — shundog' bo'lub ikki turli o'zgarub turar, ba'zi vaqtida falak bir odamni qayg'uga solar, ul o'zi tushunib, o'ylab turub, oh tortub yig'lar. Bu hasratlarni o'z ichiga sig'dirolmas. Birovga aytsa, «Voy bechora» deyurmukin, deb o'z qayg'usini birovga aytmakka tilar. To'p to'g'ri aytganda u qadar ta'sir qilmas. Adabiyot ila aytganda albatta ta'sir qilar. Mening bir oshnamning o'lđigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtida maktub kelar, maktubda alarning ko'rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

Gullar bila pok qayg'uli mahzun boqurdi

Ko'z yoshlarimiz to'xtamay tun-kun oqurdi.

Mana shuni o‘qub albatta bir ta’sir ila alarning qayg‘usiga qo‘shulurmiz. Bir bola uxlamasa alla aytarlar. Bola tez uxbab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qulur. Eski bobolarining bir ma’shuqa uchun Qoshg‘ar taraflariga yayov borganini va yo‘lda o‘g‘rilar tarafidan o‘lturulgani g‘oyat yaxshi ohang bilan aytilur. Ul vaqtida bola ta’sirindan uxbab ketar. Shunga o‘xshash o‘zining shavkat va g‘ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor va dahshatga solg‘on jahongirlarning o‘tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko‘rsa va eshitsa har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo‘linur.

Mana shunday qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g‘ayrat —barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. Hech to‘xtamasdan harakat qilub turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o‘limg‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur. Bizdan boshqa millatlarga ko‘z solsak ko‘ramizki, alarning olti yoshdan oltmish yashar qarilarina qadar adabiyotdan bir lazzat olub oxir umriga qadar adabiyot o‘qub eshitmakni vazifai milliyasidan hisob qilur. Mana shuning uchundirki, Ovro‘poning har shahar va qishloqlarida har kun, har hafta adabiyot kechalari qilinur, adabiyot o‘qilur, nutq so‘ylanub xalq ko‘b kirub ta’sirlanurlar. Mana totor qardoshlarimiz yilda bir daf‘a bo‘lsa ham shahar va qishloqlarida «Adabiyot kechalari» qilub xalqg‘a ruh berub ko‘b olqishlar, ofarinlar oldigini g‘azetalardan o‘qub turmakdamiz. Bizlar esak adabiyotdan lazzat olmak bir tarafda tursun, hatto bobolarimiz va bolxosa «Islom madaniyati» zamoninda katta ro‘l o‘ynag‘on va alarning maishatlarin ko‘rsatgan ta’rix umumiylarni o‘qub anglamoqdin ham ko‘b yiroq turamiz.

Bizni ulamo va eshonlarimiz to‘n kiymakdan, avomlarimiz choyxonalarga chiqub choy ichmakdan va ziyolilarimiz esa Ovrupo kiyumliklaridan va qiyamatlik

papiro‘slaridan lazzat olurlarki, «adabiyot nima?» desang, javobida yuqorida aytilgancha «ya’ni, masalan»dan boshqa javoblari yo‘qdir. Mana shuning uchundirki, kundan-kunga ruhimiz tushub, keladirg‘on istiqbolimizga umidsiz qarab, boshqa millatlar kabi shod va umidli yashamaymiz va bizda shodlik va ruh bo‘limgani uchun bir ishni qilamiz deb endi o‘ylaganimizda o‘y yo‘q — fikrlar chochilub, aqllarimiz parishon bo‘lub ketar. Adabiyot chin ma’nosиila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirk‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.

Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, «adabiyot kechalari» yasayluk. Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda «bayoz» va bema’ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo‘shilaturg‘onlar bo‘lsa adabiyotning foydasi to‘g‘rusinda «Oina» va «Sado»larimizga tarixiy va adabiy maqola va she’rlar yozsunlar, kitoblar tartib bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa — adabiyot, adabiyot, adabiyot...

«*Sadoi Turkiston*» 1914 yil 4 iyun

TANQID – SARALAMOQDUR

Majalla va jaridalarning katta bir xosiyati tanqid, ya’ni saralamoqdur. Sarroflar aqchani, tujJORlar mato‘ni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatg‘a taalluq nimarsalarni saralaydurki, boshqa so‘z ila «tanqid» atalur. Masalan, yangi maktab va muallimlari va anda o‘qulaturgon kitoblarni ma’nан taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqiddur. Taarruz va dushmanlik emas. Agarda shaxsiyatg‘a to‘qunmasa. Ammo bir muallim yo mudarris va muharrirni ishidan, shaxsiyatidan xaloyiqg‘a zarar kelsa, andan ham bahs va

tanqid yozmoq shaxsiy bo‘lmaydur. Tanqid yangi yozilgan kitob, jarida va majallalarg‘a-da joriy va nofe’dur. Masalan, bir muharrir va yo muallimni sahvini va o‘z xizmatig‘a beparvoligini va lozim qoida va tartiblарg‘a amal qilmay, ommag‘a zarar kelturgonini tanqid etmoq boisi isloh bo‘lur. Bizni Turkistonda yangi maktablar xeyle bordur. Yangi risola xeyle bosilib turubdur. Jaridalarg‘a maqola va shiorlar o‘qulub turubdur, Ammo hanuz tanqid davrig‘a yetushganimiz yo‘q. Ittifoqo, tanqid shaklinda bir nimarsa yozilsa, bizlarg‘a qattig‘ tegar. Yozganlarimizni buzuqligi va fikrimizni xatoligi, ishimizni noqisligini biror kishi ko‘rsatsa, achchig‘imiz kelur. Va ul odamni dushman ko‘rub, shaxsidan nafrat va fikrig‘a norozilik bayon etarmizki, bul bizni yangidan ishg‘a boshlaganimizdan, boshqa til ila noqisligimizdandur. Biz eskilarni ayblaymizki, alarg‘a islohdan so‘zlasak, chiday olmaydurlar. Ammo o‘zimizning maqtab, risola, tahrir va maslakimizni bir kishi tanqid etdimi, chiday olmaymiz, diqqat ila munaqqid so‘zini tinglamaymiz, Munaqqid bizni to‘g‘rimizg‘a ming so‘z ila bayoni muddao etar ekan, biz oni ichindan o‘n so‘zini noma’qul topib, yuzig‘a urarmiz. Va yoinki vajhsiz oning so‘zini raddu o‘zig‘a e’tiroz etarmiz. Agarda ul desaki, man sizg‘a bir ming kalima nasihat yo tanqid so‘yladim, durust, o‘n kalimasi sizg‘a bejo ekanki, qaytib oldim, 990 kalimasig‘a na dersiz? Na javob berarmiz! Tanqidni ko‘tarolmaganimizg‘a to‘g‘risi, hanuz tanqidg‘a loyiq bo‘lmaganimizni misoli. Kafkazli sayyoh Muhammad Sayyid afandi Turkiston maktablari to‘g‘risinda «Oila va mo‘tabaran iqbol» jaridasig‘a tanqid yozib ediki, aning javobi yalg‘uz quruq bir e’tiroz (pro‘test) bo‘ldi. Ammo oning yozg‘anig‘a javob tushmas. Ikkinchi, «Adab va tarbiyat» unvoni ila yana sayyoh mazkur «Oyna»ning 27—28—29—30 raqamlarinda maktab to‘g‘risinda voqe‘i dalillari ila ba’zi nimarsalar yozdiki, mo‘tabar «Sadoyi Turkiston» rafiqimiz 11-adadinda Muhammad Sayyid afandi maqolalarini xilofi adab va tarbiya deb oni yozilg‘onig‘a sohibi maqola va idorag‘a izhori norizolik aytib, mazkur maqolalarni «ahamiyatsiz» der. Hamda «muallimlarning xotirin qoldiruv» bo‘larmish. «Oyna» kamoli ehtirom ila «Sadoyi Turkiston» rafiqimizg‘a arz etarki, mazkur maqolalar boshdan oxirg‘acha ahamiyatsizmi? Agarda ahamiyatligi bo‘lsa, iltifotg‘a olmaganlarig‘a

taassuf etarmiz. Va maqola ichidan ikki-uch xati mizojsiga nomuvofiq tushgan uchun afularini tilaymiz. Takroran, aytarmiz: biz hanuz tanqidg‘a layoqat paydo etganimiz yo‘q. Yana qadima kasallarimizdan — «norizo», «xotiri qolmasunu...» illatlari hanuz ketgan yo‘q.

Muhammad Sayyid afandi ta’birincha, munday ketabersa, «qiyomatdan ming yil so‘ngra-da, Turkistong‘a taraqqiy yo‘q». Agarda, «xotir qolmasun» qoidasi maslak tutulsa, matbuotdan qalam tortmoq kerak. Chunki haqiqiy matbuot hech kimni xotirig‘a qaramas. «Xotir qolmasun» kasali biz musulmonlarni barbod etdi. Umumiy hollardan babs qilindimi? Mutlaq har bir masalag‘a bir necha kishini xotiri qolur. Islohi madoris va dorulqazo desangiz, ulamoni xotiri qolur. Islohi rasm bazm desangiz, avomni xotiri qolur. Islohi savome’ desangiz so‘fi, shayxu eshonlarni xotiri qolur. Islohi foydaxo‘rlik va tijorat desangiz, boylarni xotiri qolur. Endi islohi makotibi jadida deyilganda, muallimlarni xotiri qolsa, bas muharrirlar uchun sukutdan boshqa ish qolmaydur.

Shuni-da aytmoqli, Muhammad Sayyid afandidan yoinki idoradan birgina «ba’zi» kalimasi maat-taassuf qolibdurki, bu ba’zi vajhdan ba’zi muallim afandilardan idora afu istar.

*Boqi: Muhtaram «Sadoyi Turkiston»ga salom.
«Oyna» jurnali, 1914 yil, 32-son, 621—623-betlar.*

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mavzuga oid materiallarni tahlil qiling, hamda jadid adabiyotining bugungi kundagi o‘rnini yuzasidan o‘z fikrlaringizni bildiring.
2. Jadid adabiyotida tanqidiy qarashlar va ularning ilk namoyondalari tanqidiy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatini izohlang.
3. Cho‘lpon qaslamiga mansub “Adabiyot nadir?” maqolasidagi fikrlarning bugungi kun uchun ahamiyatini misollar yordamida izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ta’lim-media, 2019.
2. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
4. Орзивеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.
5. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 184 б.
6. Тўйчиева Г. Ислом даври шеъриятида аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.бўйича фан доктори (Dsc) дисс. автор. – Т., 2018. 264 б.
7. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ, 1990. – 240 б.
8. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул мухаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
9. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013.– 408 б.

4- AMALIY MASHG'ULOT.**JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGI VA TURKISTON****JADIDCHILIGINING TADQIQ ETISH TAMOYILLARI****O'ZBEK ADABIYOTINING AMERIKADAGI TADQIQI VA TASHVIQI***Zulxumor MIRZAYEVA*

XX asrning birinchi yarmida sho'ro totalitar siyosati milliy fikrsizlikni kuchaytirish maqsadida bir necha avlodning eng salohiyatli farzandlarini yo'q qildi. Natijada, tarixni harakatga keltiruvchi ulug' shaxslardan xoli ommaviy jarayon milliy tafakkurdagi qo'rquv va tobelik asosiga qurildi. Biroq, o'sha suronli yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Sulaymonqul o'g'li Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ma'rifatparvar jadidlarning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi muayyan darajada ijtimoiy muhitga nisbatan isyon tarzida shakllandi, milliy mentalitetni asrashga bo'lgan kuchli intilishlar sifatida sinovdan o'tdi. XX asrning birinchi choragiga oid ijtimoiy-estetik fikr-qarash va tuyg'u-kechinmalar aks etgan badiiy ijod namunalarida senzura, tahdid, shafqatsiz qatag'onlar sabab xalq va millat taqdiri muammolarini ikki fikrlilik, niqoblash vositasida tahlil qilish yozuvchilarning muhim ijodiy printsipta aylandi. Aytish mumkinki, o'tgan asrning 90-yillarigacha yaratilgan eng sara badiiy asarlar milliy tiklanish g'oyasining badiiy ifodasi sifatida millatning o'z taqdirini belgilashida muhim rol o'ynagan. Shunisi e'tiborga loyiqliki, XX asrning birinchi choragi va 90-yillarga oid ijtimoiy-estetik fikr-qarash va tuyg'u-kechinmalar aks etgan badiiy ijod namunalari, o'zbek olimlari qatorida xorijlik tadqiqotchilarni ham o'ziga jalg etdi. Edvort Olvort, David Montgomeri, Ilza Sirtautas, Villiyam Fierman, Eden Nabi, Adib Xolid, Xristofor Myurfi, Roberta (Mariya) Maykllef, Shon Lions, Ag'ir Ahmet, Reychel Harrel, Inderbog Baldauf, Zigrig Klaymixel, Masimo Baldasi, Xarlod Battersbi, Akiner Shirin, Nik Megoran, Mark Ris, Stefan Dudoignon, I. Sergeev, Boymirza Hayit, Xisao

Komatsu, Temur Xo‘ja o‘g‘li, Xalim Kara va yana ko‘plab Amerika, Angliya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, Shvetsariya, Rossiya, Yaponiya, Turkiya olimlari mazkur jarayonda faol ishtirok etib, Turkiston xalqlari tarixi, adabiyoti va adabiy siyosati talqiniga bag‘ishlangan tadqiqotlar yaratdi. O‘zbek adabiyoti namunalari ushbu tadqiqotchilar tomonidan ingliz, fransuz, nemis, rus, yapon va turk tillariga tarjima qilindi. XX asr o‘zbek adabiyotining xorijdagi tadqiqiga bag‘ishlangan manbalarni o‘rganish jarayonida Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston xalqlari hayoti, tarixi, madaniyati va adabiyotiga bo‘lgan qiziqish, uni targ‘ib qilish, mazkur tadqiqotlarni moliyaviy jihatdan qo‘llab quvvatlash, universitetlarda “Markaziy Osiyon” o‘rganish” bo‘limlarini yanada ko‘paytirishga xayriyohlik holatlari Amerikada keng tarqalganligi va ushbu jarayon boshqa g‘arb mamlakatlariga nisbatan izchil sur’atda davom etib kelayotganligi ma’lum bo‘ldi. Amerika o‘zbekshunoslarning 50-70-yillar oralig‘ida olib borgan izlanishlarida asosiy e’tibor Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tadqiq etishga qaratilgan bo‘lib, bu tadqiqotlarda o‘rganiladigan mavzuga sub’ektiv munosabat, siyosiy yondashish tendentsiyasi yetakchilik qilgan. Keyingi davr (70-90-yillar)da yaratilgan tadqiqotlarda esa badiiy asardagi ijtimoiy-g‘oyaviy, badiiy jihatlar sinkretizm nuqtai nazaridan o‘rganilganligi kuzatiladi. Ayni yillarda yaratilgan ilmiy asarlarda adabiyotning spetsifikasiga har tomonlama yondashish bilan birga ta’lim-tarbiyaning rivojlanishida madaniy an’analarning o‘rni masalalari atroflicha tadqiq qilindi. Ilmiy mezonlar nisbatan chuqurlashganligi, badiiy asarlardagi qahramonlarga obraz va xarakter sifatida yondashish kuchayganligini alohida ta’kidlash lozim.

Mustaqillikdan keyin yaratilgan tadqiqotlarda nisbatan ob’ektiv fikrlash qaror topdi. Oldingi davrdagi kabi fikriy qaytariqlar deyarli uchramaydi. Bitta tadqiqot ob’ektini atroflicha, har jihatdan tadqiq etish an’anasi yetakchi o‘rinni egallagan holda qo‘yilgan masalaga analitik yondashish kuzatiladi. O‘zbek so‘z san’ati namunalarini adabiyotshunosligmizda nisbatan kam o‘rganilgan nazariyalar asosida tadqiq qilinishi xorij, xususan Amerika olimlari tadqiqotlaridagi individual konseptsiyalar qiymatini belgilaydi. Xususan,

amerikalik olimlardan biri Edvort Olvort o‘zining 60 yildan ortiq umrini o‘zbek so‘z san’atini dunyoga targ‘ib qilish uchun safarbar etdi. Olim “Padarkush” – “The Patricide” (M.Behbudiy), “Qiyomat” – “The Judgment Day”, “Bedil. Bir majlisda” – “Bedil. In one Session”, “Shaytonning tangriga isyoni” – “Satan’s Mutiny against the Lord” (Fitrat) asarlarini tahlil va birlamchi manbalar asosida tarjima qilish orqali mualliflarning XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy-madaniy muhittdagi intellektual salohiyati, o‘zbek adabiyoti tarixining rivojlanishidagi o‘rnini o‘ziga xos tadqiq metodlari vositasida nafaqat xorij, balki o‘zbek kitobxonlariga ham namoyish etdi. Xristofor Myurfi, Adib Xolid, Roberta M. Maykellef, Shon Lions, Reychel Harrel kabi keyingi avlod vakillari qarashlarida ham o‘zbek jadid asarlaridagi maqsadlar, uning estetik ideali masalalari to‘g‘ri ochib beriladi. Roberta Mariya Oybek, Oydin Sobirova, Hamid Olimjon, Zulfiya, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov she’rlaridan namunalarni ingliz tiliga tarjima qilib, mazkur o‘girmalardagi ko‘p ma’noli voqelik asosida O‘zbekistonda milliy uyg‘onish va ma’naviy-ruhiy tiklanish jarayonlari tadrijiy tarzda kechganligini isbotlashga harakat qilgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotining amerikadagi eng yosh targ‘ibotchilaridan biri, Reychel Harrel Bilisining o‘zbek adabiyoti, she’riyatiga muhabbatи uning tarjimalari va tahlillarida aks etgan. Reychel tadqiqotining bir qismi o‘zbek modern she’riyati va uning tarjimalari muammolariga bag‘ishlanadi. Olima modernistlar Faxriyor, Bahrom Ro‘zimuhammad, Go‘zalbegim ijodidan namunalarni inglizchalahtirib, milliy she’riyatimizdagi yangicha yo‘nalishlar va uning ingliz tilidagi talqini muammolari xususida qiziqarli fikrlarni bildirgan. O‘zbek adabiyotining fransiyalik muxlisi, olim Stefan Dudoignon ilk marotaba Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanini o‘z ona tiliga to‘liq tarjima qilib, Turkistonning suronli yillarida yaratilgan o‘zbek romanini Fransiyada targ‘ib etilishiga munosib hissa qo‘shti. Germaniya, Italiya, Shvetsariya, Yaponiya va Turkiya olimlarining bu yo‘nalishdagi tadqiqotlari esa o‘zbek adabiyoti yaxlit jahon adabiyotining bir qismi ekanligini ko‘rsatadi. Bularning barchasi amalga oshirilgan ulkan ishlar qatorida sanalmoqqa haqlidir. O‘zbek so‘z san’atini dunyo mehvariga olib

chiqayotgan xorijlik olim-tarjimonlarning barcha ishlarini ushbu kichik maqolada aks ettirish, tahlil va tadqiq etish imkondan xorij masala. Biz o‘zbek madaniyati, mentaliteti va urf odatlarini boshqa bir millat vakillariga tanitayotgan, o‘z umrlarini mana shu zahmatli ishlarga safarbar etgan xorijlik hamkasabalarining bu yo‘ldagi mashaqqatli xizmatlarini qadrlaymiz. Zero tarjima xalqlar o‘rtasidagi umumbashariy g‘oyalarning tarqalishiga xizmat qilishi bilan birga millatning badiiy san’at durdonalarini dunyoga namoyon qiladi. Millatlar, xalqlar, elatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Jahon madaniyati, ayniqsa, so‘z san’ati yuksalishiga xizmat qiladi. Xorij olimlarining mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlari, avvalo, madaniyatimiz va adabiyotimizning xalqaro maydonda o‘ziga xos mavqeい borligini isbot etsa, ikkinchi jihatdan, ajdodlardan qolgan betakror meros xorijlik olimlarni ham e’tiborsiz qodirmayotanligi ko‘nglingda sharaf va g‘urur uyg‘otadi.

“Vatandosh” 2011-yil 21-may

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mavzuga oid materiallarni tahlil qiling, hamda jadid adabiyotining qardosh xalqlar adabiyotida o‘rganilishi yuzasidan o‘z fikrlaringizni bildiring.
2. Aynan jadid adabiyoti namoyondalari ijodini o‘rganuvchi g‘arb olimlaridan birining ishlari bilan tanishib uning o‘ziga xos xususiyatini izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ta’lim-media, 2019.
2. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
3. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Ўзбекистон, 2014. – 320 б.
4. Орзивеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Т.: Фан, 1976. – 120 б.

5. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Т.:Ўқитувчи,1979. – 184 б.
6. Тўйчиева Г. Ислом даври шеъриятида аruz тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.бўйича фан доктори (Dsc) дисс. автор. – Т., 2018. 264 б.
7. Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Т.: Шарқ,1990. – 240 б.
8. Алишер Навоий: қомусий луғат. 1-2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддинов. – Т.: Шарқ, 2016.
9. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2013.– 408 б.

V. KEYSLAR BANKI



Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. “Keys-stad” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalgalashirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

1-keys. 1905-yil Turkiston hayotida ro‘y bergan muhim siyosiy-tarixiy voqealar adabiyotda qanday holatda aks ettirildi?

2-keys. “Jadid” atamasining Turkistonga kirib kelishi kimning nomi bilan bog‘liq?

3-keys. Ismoil Gasprinskiy asos solgan yangi ta’lim usuli va uning xususiyatlarini izohlang.

4-keys. Turkiston madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan hukumat nashrlari xalq hayotida qanday rol o‘ynagan. Fikringizni dalillar yordamida izohlang.

5-keys. B.Qosimov tasnifiga ko‘ra jadidshunoslikning bosqaichlarga bo‘linishini izohlang.

6-keys. Jadid maktablari uchun yaratilgan “Ustozi avval” kitobining mu’allifini toping va boshqa jadid adabiyot namunalari bilan solishtiring.

7-keys. Jadidchilik harakatining shakllanish davrlarini izohlang.

VI. GLOSSARY



VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Adabiyot	arabcha so'z bo'lib, u "odob" (ko'plik shakli "adab") so'zidan olingan.	Arabic was used, it was used "odob" (processing form "adab").
Adabiyotshunoslik	so'zi ham ikki qismdan iborat bo'lib, u "adabiyot bilan shug'ullanish", "adabiyotni o'rghanish" ma'nosini anglatadi. Bundan ayon bo'ladiki, adabiyotshunoslik adabiyot haqidagi fandir.	The word also has two parts, meaning "to study literature," "to study literature." From this it is clear that literary criticism is the study of literature.
Adabiyot tarixi	adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o'ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o'rghanadi.	studies the principles of the development of literature, the peculiarities of each period, the creative activity of artists.
Adabiyot nazariyasi	adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog'liqlikni, so'z san'atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o'ziga xos	the connection between literature and social life, the development of the art of speech in connection with the development of human society, the nature of literary types and genres, their peculiarities, the structure of the work of art, its

	<p>xususiyatlarini, badiiy asar tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo‘nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o‘rganadi.</p>	<p>constituent parts, the language of the work, studies issues such as style of expression, artistic-visual means, literary direction, literary style, literary school, artistic skill of the artist.</p>
<p>Adabiy tanqid</p>	<p>joriy adabiy jarayonni tahlil qiladi. Yaratilayotgan asarlarning g‘oyaviy-estetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo bo‘layotgan o‘zgarish, yo‘nalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga ta’siri haqida fikr bildiradi.</p>	<p>analyzes the current literary process. Evaluates the ideological and aesthetic value of the created works. Identifies changes, trends, and styles that occur in the literary process. Explains the impact of works on people's tastes and thinking.</p>
<p>Jadidchilik</p>	<p>(arabcha: <i>jadīd</i> — yangi) — 19-asr oxiri 20-asr boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayoti da muhim ahamiyat kasbetgan ijtimoiy-</p>	<p>(Arabic: <i>jadīd</i> - new) - a socio-political, enlightenment movement that played an important role in the life of Turkestan, the Caucasus, Crimea and</p>

	<p>siyosiy,zma'rifiy harakat. Jadidchilik dastlab 19-asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. 19-asrning 90-yillaridan O'rta Osiyoda tarqaldi.</p> <p>Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkey tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan.</p> <p>Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb ta'rif</p>	<p>Tatarstan in the late 19th and early 20th centuries. Jadidism first appeared in the Crimea in the 1980s. Widespread in Central Asia since the 1990s.</p> <p>Jadidism originally functioned as a cultural movement. They called for the struggle for development, the development of the Turkic languages, the enrichment of literature in these languages, the study of secular sciences, the use of scientific advances, and the struggle for equality between women and men. Later, the Jadids propagated the ideas of Pan-Turkism. Jadidism was described in Soviet literature as a "bourgeois-liberal, nationalist movement." During this period, the names of mostly criticized Jadid representatives were revived after the disintegration of the SSRI.</p>
--	---	--

	<p>berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSRI parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi.</p>	
<p>Jadid matbuoti</p>	<p>Jadidchilik harakati davomida ularning o‘z matbuoti shakllandi. Jadidlar Toshkentda 1905-1906-yillarda „Taraqqiy“ (muharriri — Ismoil Obiliy), „Xurshid“ (muharriri — Munavvarqori), 1907-1908-yillarda „Shuhrat“ (muharriri — Abdulla Avloni), „Osiyo“ (muharriri — Ahmadjon Bektemirov), „Tujjor“ (muharriri — Saidkarimboy Saidazimboy o‘g‘li), Buxoroda 1912-yilda „Buxoroyi sharif“ (muharriri — Mirzo Jalol Yusufzoda), „Turon“ (muharriri— G‘iyos maxsum</p>	<p>During the Jadid movement, they formed their own press. Jadids in Tashkent in 1905-1906 "Taraqqiy" (editor - Ismail Obili), "Khurshid" (editor - Munavvarqori), in 1907-1908 "Shuhrat" (editor - Abdulla Avloni), "Asia" (editor - Ahmadjon Bektemirov) , "Tujjor" (editor - Saidkarimboy Saidazimboy oglu), in Bukhara in 1912 "Bukhara Sharif" (editor - Mirzo Jalol Yusufzoda), "Turon" (editor - Giyos makhsum Husseini), in Samarkand in 1913 "Samarkand" (editor - Mahmudhoja Behbudi), in Tashkent "Sadoyi Turkiston" (editor - Ubaydullahojah Asadullahojah), in Kokand "Sadoyi Fergana" (editor -</p>

	Husayniy), Samarqandda 1913-yilda „Samarqand“ (muharriri — Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda „Sadoyi Turkiston“ (muharriri — Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev), Qo‘qonda „Sadoyi Farg‘ona“ (muharriri — Obidjon Mahmudov) gazetalari va Samarqandda 1913-1915-yillarda „Oyina“ (muharriri — Mahmudxo‘ja Behbudiy), Toshkentda 1915-yil „Al-isloh“ (muharriri — Abdurahmon Sodiq o‘g‘li) jurnallarini nashr qilishdi. Shuningdek, 1917-1918-yillarda Toshkentda „Najot“ (muharriri — Munavvarqori), „Kengash“ (muharrirlari — Ahmad Zakiy Validiy va Munavvarqori), „Turon“ (muharrirlari —	Obidjon Mahmudov) and in Samarkand in 1913-1915 "Oyina" (editor - Mahmudhoja Behbudi-1915, Tashkent) -isloh "(editor - Abdurahmon Sadiq oglu). Also in 1917-1918 in Tashkent "Najot" (editor - Munavvarqori), "Kengash" (editors - Ahmad Zakiy Validi and Munavvarqori), "Turon" (editors - M. Afandizoda, Abdulla Avloni), "Ulug Turkiston" (editor). - Kabir Bakirov), "Shuroy Islam" (editor - Abdulla Battol), "Turk sozi" (editor - Temirbek Khudoyorkhonov), "Turk eli" (editor), "Hurriyat" in Samarkand (editors - Mardonqul Shohmuhammadzoda, Akobir Shomansurov, Fitrat) In Kokand were published the newspapers "Living Word" (editor - Obidjon Mahmudov), "El Bayrogi" (editor - Bolat Soliev) and
--	---	--

	<p>M. Afandizoda, Abdulla Avloniy), „Ulug‘ Turkiston“ (muharriri — Kabir Bakirov), „Shuroy Islom“ (muharriri — Abdulla Battol), „Turk so‘zi“ (muharriri — Temirbek Xudoyorxonov), „Turk eli“ (tahririyyati), Samarqandda „Hurriyat“ (muharrirlari — Mardonqul Shohmuhammadzoda, Ak obir Shomansurov, Fitrat), Qo‘qonda „Tirik so‘z“ (muharriri — Obidjon Mahmudov), „El bayrog‘i“ (muharriri — Bo‘lat Soliyev) gazetalari va „Kengash“ (muharriri — Hamza), „Yurt“ (muharriri — Ashurali Zohiriy) jurnallari chop qilindi.</p>	<p>magazines "Kengash" (editor - Hamza), "Yurt" (editor - Ashurali Zohiriy).</p>
Yangi usul maktablari	<p>musulmon maktablarining ta’lim usuli va dasturlarini isloh</p>	<p>educational institutions that reformed the teaching methods and curricula of</p>

	<p>qilib, bolalarga ona tilida xatsavod o‘rgatgan va yangilik g‘oyalarini ilgari surgan o‘quv yurtlari. Dastlab Qrimning Boqchasarov shahrida 1884 yil ma’rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush usuli") maktabi bo‘lgan. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shaxslarni yetishtirish ehtiyojini tug‘dirdi. Ko‘p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko‘nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta’lim beradigan maktablar ochila boshladi. 1893 yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo‘minxo‘ja</p>	<p>Muslim schools, taught children to read and write in their mother tongue, and promoted innovative ideas. Originally founded in 1884 in the Crimean town of Bakhchisaray by the enlightener Ismailbek Gasprinsky, it was a school of "method savtiya tadrijiya" ("evolving sound method"). The development of trade and industry in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries necessitated the development of people who could manage these industries. Centuries-old schools did not provide young people with the necessary secular knowledge and skills. Therefore, new schools were opened. In 1893, with the permission of the Emir of Bukhara Abdulahadxhan and the efforts of Mominkhoja Vobkendi and Domla Fozil from Gijduvan, the first new</p>
--	---	---

	Vobkendiy va g‘ijduvonlik Domla Fozil sa’yharakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O‘zbekiston hududida keyingi Yangi usul mактабларим. 1898 yil Qo‘qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o‘zbeklar bu davrda bunday maktablarni "no‘g‘oy mакtab" deb atagan). 1900 yildan boshlab Toshkentda jadidchilik harakatining yirik namoyandasи Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) tashkil qilgan Yangi usul maktablarим. ish boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva	method school was opened. My next New Method schools in Uzbekistan. It was opened in 1898 in Kokand by Salohiddin Domla and Tatar teachers at a cotton factory in Samarkand (Uzbeks at the time called such schools "nogai schools"). Munavvarqori Abdurashidkhonov, a great representative of the Jadid movement in Tashkent since 1900, and Abdukadir Shukuri (Shakuri) in Samarkand. started work. Similar schools were opened in Andijan and Namangan, as well as in the Khiva khanate. In 1908, another new methodical school in Bukhara, founded by A. Burhanov, was soon closed. The new method in my schools has shifted from the method of individual teaching in the school to the method of teaching in the classroom, in the classrooms
--	---	---

	<p>xonligida ham ochilgan. 1908 yil Buxoroda A. Burhonov tomonidan tashkil etilgan boshqa yangi usul maktabi ko‘p o‘tmay yopib qo‘yilgan. Yangi usul mактабларимда мактабхонадаги yakka o‘qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o‘tildi, sinflarda geogr. xaritalari, globus va boshqalar ko‘rgazmali qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Yangi usul mактабларимда xatsavod bolalarning ona tilida tovush usuli — usuli savtiyaaa o‘rgatilgan.</p> <p>Maktablar asosan 1—4sinfdan iborat boshlang‘ich maktablar bo‘lgan. 1913/14 o‘quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1bosqichi</p>	<p>geogr. maps, globes, and other visual aids appeared. The new method is taught in schools. The sound method in the native language of literate children is taught savtiyaaa. The schools were mainly primary schools with grades 1-4. From the 1913/14 academic year, a two-stage system was introduced in some places. The schools in this system are called model schools, the first stage of which is called the primary school, and the second stage is called the advanced class. In particular, the exemplary school of M. Abdurashidkhonov, the school of A. Shukuri in Samarkand and the school of A. Ibodiyevttt in Kokand also began to develop (upper) grades (5-6 grades).</p>
--	---	--

	<p>tahziriy (boshlang‘ich) sinflar, 2bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan.</p> <p>Xususan,</p> <p>M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyevttt Qo‘qondagi mактабида rushdiy (yuqori) sinflar (5—6sinf) ham ish boshlagan.</p>	
Rus tuzem mактаблari	<p>Rus-tuzem mактаблari (rus. туземets — mahalliy aholi) — Turkistonda Okt. to‘ntarishiga qadar mahalliy aholi bolalari uchun ochilgan boshlang‘ich rus mактаблari. Uni ochishdan asosiy maqsad o‘lkani ruslashtirish edi.</p> <p>Turkiston generalgubernatori K.P. fon Kaufman "musulmon va rus mактабларining ajralib turishi"ni iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli</p>	<p>Rus-tuzem schools (rus. Tuzemets - locals) - in Turkestan Oct. Primary Russian schools for local children before the coup. The main purpose of its opening was to Russify the country.</p> <p>Turkiston Governor-General K.P. von Kaufman considered the "separation of Muslim and Russian schools" to be economically and politically detrimental.</p> <p>Kaufman's successor, Lieutenant General N.O. Rosenbach went on to say that the new schools of the</p>

	<p>deb hisobladi. Bu g'oyani Kaufmanning izdoshi generalleytenant N.O. Rozenbax davom ettirib, ibtidoiy turdag'i yangi maktablar — Rus-tuzem maktablarim. tarmog'ini yaratish loyihasini ishlab chiqdi. Birinchi rustuzem maktabi 1884 y. 19 dek.da Toshkentda ochilgan. Unda 41 bola o'qigan. 1891 y. Xivada, 1894 y. Buxoroda ham ochilgan. Ularning soni 19-asr oxirida 100 dan oshgan. Rus-tuzem maktablarimda ta'lif muddati 4 y. bo'lgan. Rus-tuzem maktablarim. ruscha va mahalliy sinflarga bo'lingan. Rus tili, o'qish, yozish, hisob, geom., tarix, boshlang'ich o'zbek tili, arab tili va islom dini asoslari o'qitilgan. Rus tili, hisob, yozuv, geom., tarix darslarini rus</p>	<p>primitive type were my Russian-style schools. developed a project to create a network. The first rustuzem school was founded in 1884. It was opened on December 19 in Tashkent. It has 41 children. 1891 y. Khiva, 1894 y. It was also opened in Bukhara. Their number exceeded 100 at the end of the 19th century. The term of study in my Russian-language schools is 4 years. was My Russian-style schools. divided into Russian and local classes. Basics of Russian, reading, writing, arithmetic, geom., History, elementary Uzbek, Arabic and Islam were taught. Russian language, arithmetic, writing, geom., History were taught by a Russian teacher, Uzbek language, Arabic language, and Islamic basics by an Uzbek teacher. Saidrasul Saidazizov's "Us todi avval" (1902), Aliaskar</p>
--	--	---

	<p>o‘qituvchisi, o‘zbek tili, arab tili, islom dini asoslarini o‘zbek muallimi o‘qitgan. Saidrasul Saidazizovning "Us todi avval" (1902), Aliasqar Kalinining "Muallimi soniy" (1903), S.M.Gramenitskiyning 3 qismdan iborat o‘qish kitoblari Rus-tuzem maktablarim.</p> <p>o‘quvchilarining asosiy darsliklari bo‘lgan. Ayrim Rus-tuzem maktablarim. qoshida kattalar uchun (rus grammatikasi asosini o‘rgatish maqsadida) kechki maktablar, ko‘chmanchi aholi uchun esa internatlar tashkil kilingan. Keyinchalik 2 y.lik va ayollar uchun ham Rus-tuzem maktablarim. ochilgan. Rus-tuzem maktablarim. mahalliy aholining bir qismiga o‘scha davr uchun ilg‘or bo‘lgan madaniyat</p>	<p>Kalinin's "Muallimi soniy" (1903), SM Gramenitsky's three-part textbooks are Russian-style schools. were the main textbooks of his students. Some of my Russian-style schools. evening schools for adults (to teach the basics of Russian grammar) and boarding schools for the nomadic population. Later I went to Russian-language schools for 2 years and for women. opened My Russian-style schools. It allowed a section of the local population to enjoy the cultural achievements of the time.</p>
--	--	--

	<p>yutuqlaridan baxramand bo‘lish imkonini yaratgan.</p>	
Jadidchilik g‘oyalari	<p>Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari quyidagilar edi: Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzish. Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Samarqand va Xivadahur fikrli va taraqqiyatparvar kishilarning ayrim</p>	<p>The main ideas and goals of Jadidism were: liberation of Turkestan from medieval backwardness and religious superstition, reform of Sharia, enlightenment of the people, struggle for autonomy in Turkestan, establishment of constitutional monarchy and parliament in Bukhara and Khiva, and later democratic republic. and building a prosperous society, introducing a stable national currency, and building a national army. The Jadid movement was formed from cultural and educational societies and associations opened by some groups of like-minded and progressive people in Tashkent, Fergana, Bukhara, Samarkand and Khivadahur.</p>

	<p>guruhlari tomonidan ochilgan madaniy- ma’rifiy yo‘nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.</p>	
Turkiston jadid asoschilari	<p>Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samar qand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubayd ulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadreddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), O bidjon</p>	

	Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm) turardi.
--	--

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI



ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муасасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновatsion

ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сонли Фармони.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябр “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сонли Фармони.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони.
17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.
18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 29 январ “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги 40-сонли Қарори.

III. Maxsus adabiyotlar

19. Балдауф Ингеборг. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент:

- Маънавият, 2001.
20. Қосимов, Б. Уйғонган миллат маърифати. Т.: Маънавият, 2011.
 21. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997.
 22. Allworth Edward. Evading Reality: The Devices of Abdalrauf Fitrat, Modern Central Asian Reformist. Leiden: E. J. Brill, 2002
 23. Allworth Edward A. The Preoccupations of ‘Abdalrauf Fitrat, Bukharan Nonconformist: An Analysis and List of His Writings. – Berlin: Verlag Das Arab. Buch, 2000.
 24. Allworth Edward. The Beginnings of the Modern Turkestanian Theater // Slavic Review. Vol.23, №4. (Dec., 1964). – P.676 – 687.
 25. Allworth Edward. Uzbek Literary Politics. – New York: Columbia University Publications, 1964.
 26. Carrère d’Encausse Hélène. Islam and the Russian Empire. Reform and Revolution in Central Asia. (Comparative studies on Muslim societies; 8. Barbara D. Metcalf, Editor). University of California Press, 1988.
 27. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. – Berkeley: University of California Press, 1998.
 28. Kleinmichel Sigrid. Aufbruch aus orientalischen Dichtungstraditionen. Studien zur usbekischen Dramatik und Prosa zwischen 1910 und 1934. – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1993.
 29. Kocaoğlu Timur (ed.). The Reform Movements and Revolutions in Turkistan (1900 – 1924). SOTA. Haarlem, 2001.
 30. Kocaoğlu Timur. Türkistan'da Türkçe İlk Tiyatro Eseri: Mahmud Hoca Behbudi'nin «Pederküş» (Baba Katili) Piyesu (1913) // Türkük Araştırmaları Dergisi (İstanbul: Marmara Üniversitesi), Sayı 15 (Bahar 2004). – S.177 – 262.
 31. Komatsu Hisao. 20. Yüzyıl Başlarında Orta Asya'da Türkçülük ve Devrim Hareketleri. – Ankara, 1993.
 32. Абдирашидов З. Исмаил Гаспринский и Туркестан в начале XX века: связи – отношения – влияние. – Т.: Akademnashr, 2011.

33. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000-2006.
34. Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2 томлик. – Тошкент: Маънавият, 1998.
35. Болтабоев Ҳамидулла. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
36. Гаспринский Исмоилбек. Ҳаёт ва мамот масаласи. – Тошкент: Маънавият, 2006.
37. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. Тошкент: Noshir, 2012.
38. Долимов У. Туркистанда жадид мактаблари. Тошкент: Университет, 2006.
39. Дўстқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. (1870-1917 йил ноябрь). Дарслик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.
40. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. – Тошкент: Университет, 1999.
41. Жалолов А., Ўзганбоев Х. Ўзбек маърифатпарварлик адабиётининг тараққиётида вақтли матбуотнинг ўрни. – Тошкент: Фан, 1993.
42. Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. – Тошкент.: Университет, 2003.
43. Зиёев Ҳ. Туркистанда Россия тажовузи ва хуқумронлигига қарши кураш. – Тошкент, 1998.
44. Исмоил Гаспринский ва Туркистан. – Тошкент: Шарқ, 2005.
45. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006.
46. Қосимов Б. Жадидчилик (айрим мулоҳазалар). Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. – Тошкент: Университет, 1993. – Б.12 – 39.
47. Қосимов Б. Маслақдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ, 1994.

48. Кўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Тошкент: ABU MATBUOT-KONSALT, 2007.
49. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов. З-нашри. – Тошкент: Маънавият, 1999.
50. Мунавварқори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2003.
51. Пардаев Қ. Ўзбек миллий уйғониш адабиётини ўрганишда матбуотнинг ўрни. – Тошкент: Мухаррир, 2012.
52. Полвонов, Н. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи (1900-1924). Т.: Akademnashr, 2011
53. Сайдов Ҳ. Маърифат либосидаги озодлик. – Тошкент, 2000.

IV. Internet saytlari

54. <http://edu.uz>
55. <http://lex.uz>
56. <http://ziyonet.uz>
57. <http://natlib.uz>
58. <https://kh-davron.uz>
59. <https://m.youtube.com/watch?v=YA6-JXJImEM>

VIII. TAQRIZLAR



Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi dotsenti Z.Abdirashidov tomonidan tuzilgan “O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” nomli fan dasturi va o'quv-uslubiy majmuaga

T A Q R I Z

“O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” moduli uchun tuzilgan fan dasturi va o'quv-uslubiy majmuada tinglovchilarda XX asr boshlarida Turkistonda shakllana boshlagan jadidchilik harakatining mohiyati, ushbu harakatning yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi, unga turli janrlarning kirib kelishi va rivojlantirilishiga qo'shgan hissasi, o'zbek matbuotining yangi adabiyotning tadrijiy rivojidagi o'rni, o'zbek jadid adabiyotining dunyoda o'rganilish va tadqiq qilish tamoyillari, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar yaratish kabi keng ko'lamli ishlarni olib borilganligi va o'zbek jadid adabiyoti erishgan natijalarini qiyosiy o'rganish, uning taraqqiyot yo'llarini aniqlash, tegishli xulosalarga kelish imkonini yaratadi.

“O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” modulidagi ilmiy qarashlar mohiyatini tinglovchilarga yetkazish jarayonida o'qitishning zamонавиъи usullari, dunyo ilmida jadid adabiyoti bo'yicha erishilgan eng so'nggi yutuqlardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Fan dasturi asosida yaratilgan o'quv-uslubiy majmua “O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” moduliga oid asosiy nazariy va amaliy masalalarning mazmun-mohiyatini yoritishga katta yordam beradi.

Z.Abdirashidov tomonidan tuzilgan “O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida” nomli fan dasturi, o'quv-uslubiy majmua o'zbek adabiyotshunosligi hamda o'qitishning ilg'or texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi, uni bemalol nashriga tavsiya etish mumkin.

B.Karimov



filologiya fanlari doktori, professor

**TOSHDO'TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARAZIDA
O'QITILADIGAN "O'ZBEK TILI FILOLOGIYASI: O'ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGI" YO'NALISHI KURSI O'QUV DASTURIGA
TAQRIZ**

Mazkur yo'nalish o'z maqsad va vazifalriga ega, albatta. Buning ijrosi uchun esa kredit modul tizimida dasturda ko'rsatilgan fanlarni dunyo ilm-faniga mos ravishda tashkil etish lozim bo'ladi. Fanlararo integratsiya, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish va bili olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo'llash – bu davr talabi sanaladi. "Jahon adabiy ta'limining yetakchi konsepsiyalari", "Adabiyotshunoslilik metodlariga xos tamoyillar", "Oliy ta'limda mumtoz she'r tuzilishini o'qitish muammolari", "Semantikaning dolzARB muammolari", "Folklor va yozma adabiy aloqalar", "O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida" kabi modullarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlash zarur.

Dasturda har bir fanni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun, tinglovchilar malakasini oshirish maqsadida rasmiy hujjatlar, jumladan, o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, malaka talablari hamda kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Zero, o'zbek adabiyotshunoslaring darajalarini dunyo ilm-fani olimlari, muallimlari darajasiga ko'tarish uchun dunyo adabiyotshunosligidagi ilg'or adabiy-nazariy metodlar tamoyillari, badiiy asarlarning shakliy jihatlariga doir muammolari, jadid adabiyotining dunyo adabiyotshunoslari tomonidan o'rganilishi, dunyo ilm-fan markazlarida o'zbek adabiyoti muammolari tadqiqotlari, o'zbek yozma dabiyoti bilan xalq og'zaki ijodi bilan aloqalarini tinglovchilar e'tiboriga havola etish o'zining yaxshi samaralarini berishi tabiiy.

Dasturda har bir fanning qisqacha tavsifi, amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari, shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan. Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilarning ilmiy-

pedagogik faoliyatini inobatga olinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish malakasiga, ayniqsa, talabalar bilan ustozlarning o'zaro muomala madaniyatiga e'tibor berish kabi masalalarning ushbu o'quv dastur tuzuvchi professor-o'qituvchilari diqqatini o'ziga jalb etgani katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga har bir tavsiya qilingan fanlar kesimida nazariy, maxsus ilmiy adabiyotlarning tavsiya qilingani ham tinglovchilar ilmiy-metodologik saviyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur dasurni ta'lif jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori

S.Normamatov





14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'naliishi kursi o'quv dasturiga

TAQRIZ

Avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil qilinganiga ko'p vaqt o'tganiga qaramay, ilmiy, pedagogik yo'naliishda katta yutuq va natijalarga erishmoqda. Binobarin, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazining aynan shu nufuzli universitet qoshida ochilgani ayni muddao bo'lgan.

"O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'naliishidagi o'quv dasturining mazmun-mundarijasi bilan tanishganda yuqoridaq e'tirofimiz haqligiga yana bir bor amin bo'ldik.

Kursning maqsad va vazifalari tadrijiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi – pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompentatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, adabiyot va folklor munosabatlarining nazariy-metodologik muammolarini bilsiz kabilarning o'rinni ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda. 1-modulning "Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish" deb nomlangan 1.1-qismida kredit tizimi haqidagi muhim tushuncha va tamoyillar, ayniqsa onlayn darslarni tashkil etish va o'tqazishda pedagog e'tibor qaratishi muhim bo'lgan jihatlar aks etgan.

"Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish" bo'limida esa pedagogning ilmiy, pedagogik salohiyatini jahon standartlariga chiqarish yo'lidagi zarur tavsiya, ko'rsatmalar belgilab berilgan.

2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish"ga qaratilgan bo'lib, bu, ta'bir joiz bo'lsa, 1-modulning mantiqiy davomi va yakunlovchi bosqichidir. Ushbu modulda tinglovchi-pedagog o'zlashtirishi ko'zda tutilgan multimediali interaktiv o'quv-uslubiy qo'llanmalarni va elektron ta'lim resurslarini tayyorlash, ulardan ta'lim jarayonida samaraliy foydalanish, QR – kod va undan foydalanish, shuningdek, sohaga tegishli ingliz tilidagi maqolalarni o'qib, tushunish ko'nikmasi kabilarning qamrab olingani mutaxassis kadrlarning o'z yo'naliislari bo'yicha yanada tajribali bo'lishlariga qaratilgan. "Mutaxassislik fanlari" deb nomlangan 3-modul 6 bo'limdan tashkil topgan bo'lib, ushbu modulda folklor, mumtoz va zamonaviy adabiyotning samarali o'qitilishiga yo'naltirilgan ilmiy-nazariy va pedagogik yo'llanmalar ifoda etilgan. "Adabiyotshunoslik metodlari va tamoyillari", "Folklor va yozma adabiy aloqalar", "O'zbek jadid adabiyoti dunyo adabiyotshunosligi kontekstida" bo'limlaridagi talab va ko'nikmalarni o'zlashtirgan pedagog-tinglovchi ta'lim jarayonida jiddiy yutuq va natijalarga erishmog'i shubhasizdir.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rinni olgan. O'quv dasturini tuzishda foydalilanigan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid 8 internet saytlaridan foydalilanigan ham mazkur dasturning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" o'quv dasturini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Emek Ushenmez,

Filologiya fanlari doktori, İstanbul universiteti professori